На самом деле, в английском языке важны 4 навыка. Но самое сложное из них – это навыки письма. В современную быстро развивающуюся эпоху выпускники стараются получить различные сертификаты, чтобы поступить в различные зарубежные университеты. Для этого им следует развивать навыки письма. Это потому, что письмо — самый трудный и трудоёмкий навык для изучения. Есть несколько способов облегчить этот процесс обучения. И мы опробовали на студентах 2 вида этих методов. Эти методы называются «свободное письмо» и «читай больше и пиши один раз». Данные методы были применены к 15 ученикам 11- класса в течение 15 дней. Следует отметить, что результаты неплохие, поскольку почти 13 или 14 студентов показали улучшение по 2 разным методам. Отсутствие идей было одним из главных препятствий для них. Но после того, как они начали использовать метод, поток идей расширился и автоматически развилась способность думать и писать. Теперь они могут писать, не переставая думать о теме. Надеемся, что такие навыки окажут им большую помощь во время экзамена, при написании эссе.

**Ключевые слова:** навыки письма, развивать, методы, облегчить процесс обучения.

### KIRISH

Avvalo, ingliz tilini o'rganishda asosiy 4ta yo'nalish farqlanadi. Ushbu yo'nalishlar: so'zlashish, tinglab tushunish, o'qish, va yozish qobiliyatlari. Ushbu 4 ko'nikmalardan eng murakkabi va hozirgi kunda deyarli barcha o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigani bu yozish qobiliyati hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy va jadallashib borayotgan davrda yoshlarning ko'pchiligi aynan ushbu qobiliyatni rivojlantirishda bir qancha muammolarga duch kelishmoqda. Yozish ko'nikmasi murakkab jarayonlardan biri bo'lishi bilan birgalikda, u o'quvchilardan fikrlarini bir joyga jamlashlarini va bir qolibga solishlarini talab qiladi [4,59]. Hammamizga ma'lumki buni bajarish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ingliz tilida insho

yoziş uchun o‘quvchilar birinchi navbatda ingliz tilida fikrlay olishlari, fikrlarini to‘g‘ri va aniq bir tartib asosida bayon qilishlari lozimdir. Bu jarayon esa albatta o‘quvchilardan katta miqdorda vaqt va energiya sarflashlarini talab qiladi. Ushbu jarayonni ossonlashtirish va o‘quvchilarda yoziş mahoratini rivojlantirishda bir qancha usullar mavjud va ushbu maqola shunday metodlar bilan tanishtirishni maqsad qilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tilida yoziş ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha mashhur olimlar o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tganlar. William Zinsserning fikriga ko‘ra, insho yozişda soddalik va ravonlik muhim faktorlar hisoblanadi. Insho yoziş jarayonida yozuvchilar o‘z fikrlarini to‘g‘ri va aniq shaklda ifodalashlari kerak. Shuningdek, insho yozişda original g‘oyalar muhim [1,67].Ko‘pchilik o‘quvchilar insho yoziş jarayonlarida ko‘proq o‘zlari bilmagan insonlarning fikrlaridan foydalanishni afzal ko‘rishadi. Bu esa natijada ularning yoziş qobiliyati imtihon qilinayotgan paytda inshodagi mazmun va insho mavzusidagi mazmunning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligiga olib keladi va inshoga qo‘yiladigan ballning pasayishiga olib keladi. Shu tufayli, imtihonga tayyorgarlik ko‘rayotgan o‘quvchilar ko‘proq insho yozayotgan paytda o‘z fikrlaridan foydalanishlari kerak. Bu esa inshoning soddalik va ravonlik jihatdan yaxshilanishiga yordam beradi.

Donald Morrison Murrayning fikriga ko‘ra esa, insho yoziş bu fikrlarni terish jaroyoni hisoblanadi. Insho yozişni rivojlantirish uchun fikrlarni tartibga solish va inshoni yozişdan oldin taxminiy fikrlar ro‘yxatini tuzib olish muhimdir [2,42]. Hammamizga ma‘lumki, ingliz tilida insho yoziş o‘zbek tilida insho yozişdan ancha murakkab vazifa hisoblanadi. O‘zbek tilida insho yoziş uchun o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini bemalol yoziş jarayonida ham ifodalab bera olishadi. Ammo ingliz tilida buni amalga oshirish juda ham murakkab jarayon hisoblanadi. Shu tufayli o‘quvchilar insho yozişayotganda birinchi navbatda insho yozişni boshlashdan oldin insho nima haqida bōladi, asosiy band qismlarida qanday g‘oyalardan foydalaniladi va inshoni yanada tushunarli qilish uchun qanday so‘zlar, iboralardan foydalanish haqida qisqacha reja tuzib olishlari lozim. Bu qisqacha reja o‘quvchini vaqtini unumli foydalanishiga va chalg‘ib qolmasligiga yordam beradi.

“Yoziş qobiliyatini rivojlantirishning men biladigan eng yaxshi usuli bu erkin yoziş mashqi hisoblanadi. Erkin yoziş mashqi haftada kamida 3 marta qilinishi kerak bo‘lgan mashqdir. Bu mashq ba‘zida avtomatik yoziş deb ham ataladi. Bu mashqning asosi oddiy, har kun 10 minutdan nimadir haqida yoziş. Mashq qilayotgan paytda hech narsaga chalg‘imasdan, so‘zlarning qanday talaffuz qilinishi yoki qanday so‘zlarni ishlatish haqida fikr yuritmasdan yoziş kerak. Shuningdek, to‘xtab qolish kerak emas”-dedi Peter Elbow [3,7]. Bu mashq nafaqat o‘quvchilarning yoziş mahoratini rivojlantirishga yordam beradi, balki, erkin yoziş mashqi o‘quvchilarning



dunyoqarashini shakllanishini, hech narsaga qaramasdan ham biror nima haqida erkin fikrlab yoza olishlarini ta'minlaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hamмамizga ma'lumki, ingliz tili fani maktablarda hozirgi kunda 1-sinfdan o'qitish tadbiri qilingan. Ushbu fan o'quvchilarda 1-sinfdan boshlab 11-sinfgacha o'qitiladi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, har bir sinf bosqichida o'ziga xos tarzda va o'quvchilarning yoshlarini inobatga olgan holda kitoblar joriy qilingan. Har bir sinf kitoblarida o'quvchilarning bilimni qabul qilish darajalariga qarab mashqlar tuzilgan. Hozirda biz 2-bosqich talabalari sifatida butun guruhimiz bilan Samarqand shahrida joylashgan 16-sonli maktabga malakaviy amaliyot o'tash uchun yo'naltirilganmiz. Va men aynan bitiruvchi sinflari bo'lmish 10chi va 11chi sinf o'quvchilarni kuzatishni zimmasiga oldim. Amaliyot davomida shuni bilish mumkinki ingliz tili darsi yuqori sinf o'quvchilarida haftada 1 yoki 2 marotaba o'tkaziladi va har bir darsda to'rt xil ko'nikmalar qaysiki o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish mahoratlarini rivojlantirish maqsad qilingan.

Ushbu tadqiqot 2024-2025 o'quv yilining 1-choragida 16-maktabda o'tkazildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida 11-“A”sinf o'quvchilari tanlandi. Ushbu sinfdagi o'quvchilarning bilim darajalari turlicha. Tadqiqotni boshlashdan oldin aynan yozish mahorati murakkab bo'lganligi va o'quvchilarni aynan yozish ko'nikmasini tekshirish uchun ulardan ingliz tilida qisqacha tasviriy insho yozishlari so'raldi. Va shu aniqlandiki, aynan ushbu o'quvchilarda insho yozish uchun g'oyalarning yetishmasligi, so'z boyligining kamligi asosiy to'siqlardir. Ularning yozish ko'nikmasini rivojlantirish uchun 2 xil metodlarni dars davomida qo'llab, birgalikda rivojlanishni maqsad qilindi. Ushbu metodlar quyidagilar:

1. “Ko'p o'qi va bir marotaba yoz” metodi (eng kamida 15 marta 1 ta namunani o'qish).

2. “Erkin yozish” metodi (har kuni 10 daqiqadan erkin mavzuda qisqacha fikrlar to'plamini yozish).

Ushbu tadqiqot metodlarini amalda qo'llashda 11-“A”sinfining 15 nafar o'quvchilar jalb etildi va tadqiqot 15 kun davomida olib borildi. Haftada 2 kun ingliz tili fani borligi sababli yuqorida ta'kidlab o'tilgan 2 xil metod har kuni almashinib qo'llandi. Bir kun 1-metod va ikkinchi kun 2-metod. Buning asosiy sababi maktablarda darslar 45 daqiqa davom etganidir. 1-metodni qo'llashda o'quvchilar Simon IELTS insholar to'plamidan foydalanishdi. Dars boshida har kuni o'quvchilarga turli xil mazmunda Simon tomonidan yozilgan insho namunasi berildi va ulardan 15 daqiqa davomida inshoni eng kamida 15 marotaba yaxshilab o'qish, inshodagi asosiy g'oyalarni aniqlash va yodda saqlash kabi asosiy vazifalar topshirildi. 15 daqiqa tugagandan so'ng esa namunalar ulardan terib olinar edi va o'quvchilardan eslarida saqlanib qolgan g'oyalarni yozishlari talab qilinardi. Va bu metod haftada bir marta

qo'llandi. Navbat 2-metodga. 2-metod unchalik ham qiyin bo'lmagan metodlar turidan hisoblanadi. Har kuni darsni boshida o'quvchilardan ularning shaxsiy mobil aaloqa vositalari, barcha distraktorlarni bir joyga yig'ish so'raldi. Shundan so'ng turli xildagi mavzular berildi. O'quvchilar ushbu mavzularda 10 daqiqa davomida o'zlarining fikrlarini bayon qilishlari lozim edi.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

1-metod tahliliga o'tsak. Albatta shuni ta'kidlash kerakki, metoddan foydalanishning ilk muddati o'quvchilar uchun oson kechmadi va bu tabiiy hol hisoblanadi. Metodning ilk 3kunida o'quvchilarda bir qancha muammolar yuzaga keldi. Boshida ular o'qish jarayonidan so'ng hech narsa eslarida qolmaganligini bildirishdi va noroziliklar yuzaga keldi. Lekin 7 yoki 8chi kundan boshlab o'quvchilarda adaptatsiya hosil bo'ldi va ular ushbu har kunlik metodga o'rganishni boshladilar. Ilk kunlarda ularda asosan g'oyalarni yozishayotganda o'zlari biladigan oddiy so'zlar bilan yozish holati kuzatildi. Lekin vaqt o'tishi bilan ular insho namunasida qanday murakkab so'zlardan ishlatilgan bo'lsa ulardan foydalanishni boshlashdi. Shuningdek, har bir qismdagi gaplar qay strukturada foydalanilishi, qiyin so'zlarning gap ichida, inshoda qaysi tarzda foydalanilishi haqida o'quvchilar ongida fikrlar paydo bo'la boshladi. Va tadqiqot metodining oxirgi kunlarida 15 nafar o'quvchilardan 10 nafarida yaxshi natija bo'lganligi aniqlandi. Ularda butkul inshoni 5marotaba o'qish orqali xuddi namunadagidek insho yoza olishlari kuzatildi. Demak, insho namuanisini qayta-qayta o'qish va undagi asosiy g'oyalarni olish orqali ham o'quvchilarda yozish kōnikmasini rivojlantirish mumkin.

2-metod tahlili. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, “erkin yozish” oson lekin samarali usul bo'lib, o'quvchilar uchun ham unchalik qiyinchiliklar tug'dirmadi. Har kuni dars boshlanishi bilan o'quvchilardan 2bet varaq olishlari talab etiladi edi. Bundan so'ng esa o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga erkin mavzular berilar edi. O'quvchilar ushbu mavzular haqida o'z fikrlarini 10 daqiqa davomida yozishlari kerak. Ammo ular hech narsaga qaramay, so'zlarning qanday talaffuz qilinishi, qanday so'zlar ishlatilishi haqida hech narsaga chalg'imasdan yozishlari kerak. Albatta metod qo'llanishining boshida o'quvchilarda to'xtab qolish kabi muammolar mavjud edi. Lekin metodning 12 yoki 13chi kunlaridan boshlab o'quvchilarda avtomatik ravishda yozish rivojlandi. Ushbu metod 15 nafar o'quvchilardan 12 nafarida yaxshi avtomatik yoza olish qobiliyatining shakllanishiga sabab bo'ldi.

### **XULOSA**

Yozish ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'ynaydigan qismlardan biri hisoblanadi. Ushbu qobiliyat nafaqat maktab o'quvchilari balki, barcha ingliz tilini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu qobiliyat o'quvchilar hayotida, ta'lim faoliyatida ular uchun kerakli qobiliyatdir. Biz ushbu maqolani yozish jarayonida aynan yozish mahoratini o'quvchilarda rivojlantirish va o'rganish

jarayonini rivojlantirishda olib boriladigan 2xil metod turini amalda qo'lladik. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu 2 turdagi metodlarning har biri o'quvchilarda samaradorlikni oshirishga o'z hissasini ko'rsatdi. Metodlar qo'llangandan so'ng o'quvchilarda avtomatik tarzda biron bir mavzuda mustaqil fikrlash va yoza olish qobiliyatlari yanada shakllandi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yoshlar kelajakda o'zlariga kerakli va muhim bo'lgan yozish qobiliyatlarini samarali rivojlantirishda ushbu 2 metodni qo'llashlari va yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. William Zinsser. On Writing Well. Published in 1976 . page-67
2. Donald Morrison Murray. A Writer Teaches Writing. Published in 1968 page-42
3. Peter Elbow. Writing Without Teachers. New York: Oxford UP. Published in 1973 page -7
4. InScience. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – / ISSN 2181-1415. 2023/05. page-59

## TA'LIM TIZIMIDA BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI BAHONING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

*125-DMTT Direktori Ro'ziyeva Dilafuz Abdullayevna  
Toshkent Shahar Yakkasaroy tumani*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ta'lim tizimida bolalar rivojlanishidagi Bahoning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati haqida batafsil yoritilgan

**Kalit so'zlar:** etod, tarbiya, muloqot, kommunikativ, kreativlik, munosabat, krezis.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik tarbiyasida ularga baho berish, rag'batlantirish nihoyatda muhim jarayondir. Ularga to'g'ri ta'lim va tarbiya berishda bahoning yuksaltiruvchi munosabati bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridir. O'zbekiston mustaqilligining keyingi yillaridanoq mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolalar masalalari kabi dolzarb vazifalarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan bolalar rivojlanishidagi barcha jihatlarni keng qamrab olgan Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori, "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlaishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash hadqida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 4-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi.) buyrug'ini keltirishimiz mumkin. Bu kabi bir qancha chora va tadbirlar so'nggi yillarda ko'plab qabul qilinmoqda.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limi va tarbiyasining muvaffaqiyati motivatsiyaga, stimullar (rag'batlar) mavjudligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lishi bir qancha psixologik va pedagogik nazariyalardan yaxshi ma'lum hisoblanadi. Chunki bolalar ta'limi va tarbiyasida namoyon bo'ladigan motivlar va qiziqishlar rag'batlantirish va jazolash tizimiga olib keladi. Rag'batlantirish ijobiy hislatlarni vujudga keltirsa, jazolash salbiy hislatlarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi va biz kutgan natijani beradi. Bolalarga baho berish munosabati o'zida rag'batlantirish va jazolashni birlashtirgan pedagogik stimullar hisoblanadi: yaxshi baho rag'batlantiradi, yomon baho jazolash uchun xizmat qiladi. Shuni esda tutish lozim-ki, eng minimum baho ham, eng maksimum baho ham bolani rivojlantiruvchi vazifani bajarmaydi. «Men» tizimi – erta bolalikda (L.I Bojovich) paydo bo'luvchi markaziy hodisadir. Bola o'zini kattalardan ajratishni o'rganadi, o'ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zini anglashning boshlang'ich shakli paydo bo'ladi.

Rivojlanishdagi muvaffaqiyatlar bola xulq-atvorini o'ziga xos tarzda o'zgartiradi. Kattalar avvalgidek yetakchi o'rin tutsa-da, bola o'z amaliy hayotining tor muhiti va u

qadar katta bo‘lmagan imkoniyatlari doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishga intiladi. Yangi tendensiyalar bola faolligini («men o‘zim») kuchaytiradi va kattalar bilan yangi munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu davr tanqidiy davr («uch yosh krizisi») deb ataladi, ya’ni kattalar bolalar bilan munosabatda yangi qiyinchiliklarga duch kela boshlaydilar. Bunda bola o‘zining negativizmi va qaysarligi bilan bardosh berib bo‘lmas darajaga etishi mumkin.

Uch yosh krizisi o‘tkinchi hodisa, lekin uning natijasi – boshqalardan o‘zini ajrata bilish, boshqa odamlar bilan o‘zini taqqoslash bolaning psixik rivojlanishida muhim qadamdir. Kattalardek bo‘lishga intilish faqat o‘yin shaklidagina nisbatan to‘liq yechimini topishi mumkin (faqat o‘yinda bola do‘konga borishi, tushlik tayyorlashi, raketada kosmosga ucha olishi mumkin). Shuning uchun ham uch yosh krizisi bolaning o‘yin faoliyatiga o‘tishi bilan hal etiladi. Lekin bu krizis bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglash natijasi hisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqat va boshqa xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi. O‘z-o‘zini anglash layoqati sekin – astalik bilan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?”, “Men katta bo‘lganimda kim bo‘laman?” singari savollarda ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo‘lishga harakat qiladilar.[3]

Bolada tengdoshlari bilan ma’lum bir munosabatlarning yuzaga kelishi, «bolalar jamiyati»ning shakllanishi maktabgacha yoshning muhim xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, ikkinchi signal sistemasi jadal rivojlanib, sensor idrok, ayniqsa, ko‘rish va eshitish orqali qabul qilish sezilarli rivojlanadi. Bolada oddiy majburiyatlar majmui paydo bo‘ladi, ongli ravishda rasm chizadi va musiqiy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. U unga qanday surat yoki musiqa yoqishini, qaysilari yoqmasligini aytishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolaning boshqa odamlarga ichki pozisiyasi o‘z «men»i va o‘z harakatlari ahamiyatini tobora anglab borishi, kattalar dunyosiga, ularning faoliyati va o‘zaro munosabatiga katta qiziqishi bilan xarakterlanadi.

Mavjud hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, past va o‘rta daromadli mamlakatlardagi 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 43 foizi rivojlanish potentsialiga erisha olmaslik xavfi ostidadir. Miya plastisitivligi va neyrogenenezning yuqori darajasi tufayli 0-5 yoshdan boshlab erta bolalik uzoq muddatli kognitiv va psixososyal rivojlanish uchun juda muhim davrdir.[2]

Bolalar bilan o‘ynash, o‘qish va qo‘shiq aytish kabi oddiy mashg‘ulotlar erta bolalikni rag‘batlantirishning (ECS) asosiy komponentlari hisoblanadi. ECS yosh bolalarning fikrlash, muloqot qilish va boshqalar bilan aloqa qilish qobiliyatini yaxshilashi mumkin. Biroq, ko‘plab bolalar ushbu muhim davrda yetarlicha rag‘batlantirmaydilar. Eng keng tarqalgan ECS dasturlaridan ba’zilari tarbiyachilarni

bolalar bilan o‘ynashga undashga qaratilgan: ko‘ngillilar yoki jamoat tibbiyot xodimlari o‘z uylarida g'amxo‘rlik qiluvchilarga tashrif buyurishadi yoki tibbiy klinikalarda, uylarda yoki boshqa jamoat joylarida guruh mashg'ulotlarini o‘tkazadilar. [7]

“11 ta past va o‘rta daromadli mamlakatlardan olingan 17 ta tasodifiy baholashni ko‘rib chiqish 1 0-3 yoshdagi bolalar bilan tarbiyachilarni ECSni qo‘llashga o‘rgatuvchi va rag‘batlantiradigan dasturlar bolalarning uy sharoitida o‘yin sifati va miqdorini yaxshilashi hamda bolalarning kognitiv qobiliyatlarini yaxshilashi mumkinligini aniqladi. Yamaykada o‘tkazilgan kichik miqyosdagi tadqiqot ishtirokchilarni 20 yil davomida kuzatishga muvaffaq bo‘ldi: u dastlabki yillarda uyda rag‘batlantirishning kuchayishi bilish, akademik yutuqlar, bandlik, ruhiy salomatlik va kattalar daromadida uzoq muddatli yutuqlarga olib kelishini aniqladi”[6].

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq. Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo‘lgan va unga turlitalablar qo‘yiladigan - o‘quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo‘lmog‘i lozim. Katta bog‘cha yoshdagi bolalar asosan maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo‘lishi mumkin. “Menga chiroyli forma va daftar, qalam, ruchkalar sotib olibberishadi”, “Maktabda o‘rtoqlarim ko‘p bo‘ladi va men ular bilan mazza qilib o‘ynayman”, “Maktabda uxlatishmaydi” kabi. Maktab tashqi atributlari shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun asosiy motiv bo‘la olmaydi. “Men otamga o‘xshagan bo‘lishim uchun o‘qishim kerak”, “Yozishni juda yaxshi ko‘raman”, “O‘qishni o‘rganaman”, “Maktabda qiyin misollarni yechishni o‘rganaman” ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma‘lum bir majburiyatlari bor bo‘lgan o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Har bir bola jamoaga qo‘shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba’zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta‘minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o‘qishdagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, ko‘pincha bu yoshdagi bolalar o‘qituvchini uzoq vaqt davomida eshita olmaydilar. O‘quv harakatlariga uzoq vaqt diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham to‘la bog‘liq. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin

muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so‘ray oladilar. Natijada ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va o‘qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi vamuvaffaqiyatli o‘qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

“Men” konsepsiyasi yoki o‘z-o‘zini anglash va baholash tushunchasi:

Kattalar yordamida o‘z kamchiliklarini bartaraf qilish, jamoada o‘zini tuta bilish;

O‘zini, o‘z mavqeini va kamchiligini anglashga intilish, o‘zlarini kattalarning baholashi bilan solishtirish, o‘z familiyasini, ismini, yoshini, manzilini, oila a‘zolarini bilish, boshqalarning xohishini hurmat qilish. O‘zlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, o‘zining shaxsiy ahloqiy sifatlarini baholay va angalay olish, qaysi shaharda yashaydi, o‘zi to‘g‘risida, boshqa bolalar to‘g‘risidagi ma‘lumot bilan almasha olish. O‘zini hurmat qilish, o‘z qadr-qimmatini bilish, o‘zini tanqidiy baholash, o‘z milliy an‘analarini va madaniy qadriyatlarini bilish, ular bilan mag‘rurlana olish (milliy kiyim, o‘yin, urf-odatini hamda tarixini bilishga intiladi).

Hissiy ifodalash. Kattalarga va tengdoshlariga nisbatan o‘zaro hurmat bilan qarash.

Saxiylik, yaxshilik va rahmdillik ko‘rsatish, o‘z kayfiyati va boshqalarning kayfiyatini tushunish.

Kattalar va tengdoshlariga samimiy munosabat bildirish.

O‘z hissiyotlarini so‘z bilan ifodalay olish, o‘zini va boshqalarning holatlarini taqqoslash va baholash.

Katta maktabgacha yoshdagi bolaning guruh umumiy manfaatlarni his etishi, boshqalarning huquqlari bilan hisoblashishi, umumiy yutuqlardan quvonishi, yordam ko‘rsatishi, umum foydasi uchun mehnat qilishi, ijtimoiy mulkka o‘yinchoqlar, kitoblar, qo‘llanmalar, qo‘g‘irchoqlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Bolalarda jamoatchilikni tarbiyalash individuallikning rivojlanishini ko‘zda tutadi: guruhda bolaning tashabbusi rag‘batlantiriladi, qizquvchanlik, zehni o‘tkirlik, individual qiziqishlar, did, mayllar qo‘llab-quvvatlanadi. guruh o‘yinlarni rag‘batlantirish individual o‘yinlarga yordam berish bilan qo‘shib olib boriladi.

Tarbiyachi ish boshlanishidan oldin bolalar bilan suhbatlanib, umumiy mehnatning va har bir bola faoliyatinnig muhimligini ta’kidlaydi. Pedagog ishning taqsimlanishi masalalarini muhokama qilar ekan, bir-birini xafa qilmasdan, navbatchilarga talabchanlikni ham murakkablashtirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotilari bolalarini axloqiy tarbiyalash asosiy bosqichlaridan biridir. Bu davrda bolalarda axloqiy fazilatlar tarkib topib boradi. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida irodaviy sifatlar shakllana boradi, xarakter xislatlari barqarorlashadi, bolada mustaqillikka nisbatan intilish tuyg‘usi paydo

bo‘ladi. Shuningdek, tayyorlov guruhi bilan bola maktabda o‘qishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi.

Bu davrda maktabgacha yoshidagi bolalar o‘z ko‘chalariga ishonch hosil bo‘lsa, ular muvaffaqiyat, faollikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Tayyorlov guruhi bolalarida kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida madaniy va uyushgan xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarning shakllanishi davom etadi. Bolalar xulq-atvoriga ularning tengdoshlari bilan munosabatlari murakkablashadi. Tarbiyachi Maktabgacha ta’lim tashkilotisi qoidalarining ongli va majburiy, bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, tashqi ko‘rinishi, harakatlari, predmetlarga munosabati, tejamkorlik, buyumlarini tartibga keltirish madaniyatini shakllantirishga, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga xushmuomalalik madaniyatini tarbiyalashga alohida e’tibor berishadi.

MTT psixologlari ish ma’lumotlari va metodikalari asosida bola shaxsi o‘zini-o‘zi anglash komponentlarining shakllanish darajasini aniqlashlari hamda ularga individual yondashib tegishli ko‘rsatmalar berishlari lozim.

3-5 yoshli bolalarda o‘z-o‘zini anglashda o‘ziga va boshqalarga nisbatan munosabatni baholash asosiy ko‘rsatgich hisoblanadi. Bolaning o‘zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o‘ziga o‘zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo‘lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Bolaning o‘zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o‘ziga o‘zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo‘lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga harakat qilishadi.

Vaholanki o‘z-o‘zini baholash maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Baholash va rag‘bat A.S. Makarenkoning ta’kidlashicha, tarbiya - to‘g‘ri xatti-harakatga o‘rgatuvchi mashqdan boshqa narsa emas. Baholash - bolalar hayotini oqilona bir maqsadga qaratiladi, har taraflama faoliyatini jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga muvofiq, tashkil etishdir. Rag‘bat muayyan harakatlar va ishlarni ko‘p marta takrorlashni o‘z ichiga oladi.[57]

Bola uchun baholash - ongli ijodiy jarayondir. Baholash natijasida malaka va ko‘nikmalar, odatlar, yangi bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlantiriladi.

—Rag‘bat sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o‘t oldiruvchi uchqundir", - degan V.A. Suxomlinskiy. Tarbiyalanuvchilar hayotida, ayniqsa boshlang‘ich tarbiyalanuvchi bolalarning hayotida baholash psixologiyasi faoliyati katta o‘rin tutadi.

"Bola uchun baholash, rag‘batlantirish – voqelik, - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy, - binobarin, uning tevarak atrofidagi voqelikdan ko‘ra qiziqarliroq voqelikdir. U bolaga, xususan tushunarli bo‘lgani uchun qiziqdir, rag‘bat bolaga shuning uchun tushunarli, unda bolaning o‘zi yaratgan mehnatining mahsuli bor".



Bola baholash jarayonida qanday bo‘lsa, u katta bo‘lganida ishda ham ko‘p hollarda shunday bo‘ladi, deb bildirgan.

Makarenkoning so‘zlarida katta pedagogik mazmun bor. Baholash - bolalar jamosini jipslashtiradigan va rivojlantiradigan faoliyat turlaridan biridir. Bolalar baholanishiga e‘tibor bilan razm solinsa, ularning ko‘zlarida kattalar dunyosi qanday aks etishini qanday bilib olayotganliklarini ko‘rish mumkin.[57]

Bola uchun baholash - ongli, ijodiy jarayondir. Baholar, rag‘batlar natijasida malaka va ko‘nikmalar, odatlar, (tajriba) bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlantiriladi. K.D. Ushinskiy tarbiyaning vazifasi xarakterni shakllantirishdan hamda hayotda hosil qilingan e‘tiqod va odatlardan tarkib toptirish deb hisoblagan. Odat, Ushinskiyning fikricha, e‘tiqodni maylga aylantiradigan va fikrni ishga aylantiradigan jarayondir. Odat - odamning ikkinchi tabiati, lekin tarbiya san‘atiga bo‘ysunadigan tabiatdir.

Avestoda esa «Bolalar yoshlik paytlaridanoq daraxt ko‘chati o‘tqazish, uy-ro‘zg‘or qurilmalarini yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatish va buning uchun rag‘batlantirilishi kerakligini» - ta‘kidlagan. Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o‘z qo‘llari bilan moddiy noz-ne‘matlar yaratishi va buning uchun baholanishi lozim.

Bolalarga baholash quvonchi, o‘qishdagi yutuq quvonchini berish ular qalbida faxrlanish hissini, o‘z izzat-nafsi hissini uyg‘otish – bu tarbiyaning eng asosiy birinchi vazifasidir, degan Suxomlinskiy.

Shunga qaramasdan bunday tajribani o‘tkaza olish individual jarayon, u muayyan qonunlarga bo‘ysunish kerakli demakdir:

1. Shaxsni shakllantirish va baholash uchun asos sifatida ta‘limni tan olish; Ta‘lim - kerakli shaxsiy parametrlarni shakllantirish uchun shaxsiy xususiyatlarga fortsk asosidagi ta‘siri. Shaxsda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar tarbiyaning natijasi bo‘ladi va baholanishga olib keladi. Ta‘lim jarayonisiz, ma‘naviy o‘zgarishlar, urf-odatlariga rioya qilish, xulq-atvor va baholash normalarini ishlab chiqish, ya‘ni shaxsning sifatli o‘zgarishi mumkin emas.

2. Bolani o‘quv va o‘quv jarayoni mavzusi bilan tan olish va baholash; Bolaning mustaqil faoliyati dunyoga bo‘lgan munosabatning xususiyatlaridan biridir. Bu shuni anglatadiki, faqat shaxsiy istak, biron bir harakatning shaxsiy istagi ijobiy natijaga olib keladi va ijobiy rag‘bat hosil qiladi. Shaxsiy faoliyatsiz, shaxsiyatni shakllantirish va baholash jarayoni juda samarasiz. Shu sababli, rivojlanish ob‘ekti sifatida insonning rivojlanayotgan shaxsiga bo‘lgan munosabat kerakli natijalarga, baholarga olib kelmaydi. O‘qituvchi bola faoliyatini shunday xohlaganiga ishonishi kerakligini yodda tutishi kerak. O‘qituvchisining roli, noyob, faqat tashkiliy sharoitda va bolaning mustaqil faoliyat natijalarini nazorat qilishda hamda baholashda.

3. Bolaning motiv va maishiy sektorini kiritish;

Har qanday mavjudotning hayotiy faoliyatida ehtiyoj katta rol o‘ynaydi. Tabiiy ehtiyojlarga qo‘shimcha ravishda ijtimoiy ahamiyatga ega. Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kelib chiqishi, manfaatlar va ichki hazmni shakllantirgan. Shaxsning sifatini shakllantirgan tangliklarning qaramligini hisobga olgan holda, motivlarni amaliy ravishda amalga oshirish uchun asos bu baholashdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarda to‘g‘ri baholash, rag‘batlantirish orqali intellektini oshirish, bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga faol ishtirokini ta’minlash, bolalarni to‘g‘ri baholash o‘id turli amaliy bo‘lgan muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish usullarni, texnologiyalarni, ilmiy-metodologik usullarni yaratish. Bolalar rivojlanishida baho munosabati asosida o‘rgatish metodlardan foydalanib ta’lim jarayonlarini tashkil etish. Tadqiqot natijalari va xulosalaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining uslubchi, tarbiyachilari, pedagogika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, dastur va darsliklar mualliflari, tadqiqotchilar, yosh mutaxassislar o‘z faoliyatlarini takomillashtirishda samarali foydalanishlari mumkin. Yuqoridagi barcha olimlarning nazariyalari bolalarda baho munosabatining nazariy va amaliy jihatlarini, o‘z asarlarida yoritib o‘tishgan.

Bolalarni tarbiyalashda rag‘batlantirishning o‘rni katta. Rag‘batlantirish bolaning ruhini, kayfiyatini ko‘taradi, ularni tetiklantiradi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi, o‘z kuchiga ishonchini orttiradi. Maktabgacha ta’lim tajribasida rag‘batlantirishning turli shakllari qo‘llaniladi: ma’qullash, ko‘ngilni ko‘tarish, ishonch bildirish, maqtash, yozma tashakkur, mukofotlash kabi turlari samarali.

Bundan tashqari jamoada rag‘batlantirish shakllari ham mavjud. Bularga: ma’qullash: boshni qimirlatib ma’qullash, yuz va qo‘l harakatlari bilan "balli", "barakalla", "rahmat", "juda soz" kabi so‘zlar orqali ham rag‘batlantirilsa maktabgacha yosh uchun mahsuldor bo‘ladi.

Ko‘ngilni ko‘tarish, dalda berish ba’zan tarbiyaviy faoliyatda yoki uyda muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda bolalar ko‘nglini ko‘tarish va dalda berish kerak bo‘ladi. Bunday vaziyatda esa ishonch bildirish. Bolani kuchi yetadigan biror vazifani topshirish va uni rag‘batlantirish, ko‘nglini ko‘tarish yo‘llarini qo‘llash kerak.

«Maqtash. Kishini maqtash juda foydali»- deydi M. Gorkiy, - chunki bu narsa uning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradi, o‘z kuchiga ishonchni orttiradi.[43]

Bu bolani nimaga undashi mumkin?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, aslida, bolalar uchun ma’qullash shakllari mavjud, bu aniq vaziyatlarga nisbatan samarali ishlamoqda. Psixologlar maqtashning qanday usullari tavsiya etishadi? Oddiy ta’sir ko‘rsatadigan, keng tarqalgan va rag‘batlantirishning usuli bu dalda hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, bolani maqtashning usuli uning yaxshi xatti-harakatlari, yaxshi xulqi uchun ota-onalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishlari nazarda tutiladi.

**FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Maktabgacha pedagogika" jurnali / Ota-ona va bola munosabatlari masalasida oilaviy kompetensiyani psixologik qo'llab-quvvatlash. Lebedeva N. B. 2008 yil oktyabr, 55 b.
2. "Halqa" jurnali / Onam har doim to'g'ri. Kuzmishina T. 2007 yil № 5, 12s.
3. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika.
4. Hasanboyeva O, Sariboev X, Hasanboev J, Niyazov T, Usmonboeva M «Pedagogika» (-T.: Fan, 2006)
5. Yusupova P «Maktabgacha pedagogika» (-T.: O'qituvchi,1996)
6. Loginova V.I. va Samorukova P.G «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» (-T.: O'qituvchi, 1991)
7. Shodmonova Sh «Maktabgacha pedagogika» (-T.: Fan va texnologiya, 2005) kabi darslik va o'quv qo'llanma.
8. Mirziyoyev Sh. M. Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi –T:Yangi O'zbekiston. 30 Oktabr 2020
9. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”.-Toshkent, O'qituvchi,1992y.
10. А.С.Мюреню «Хяожественная литература о воспитании детейю»\\Пед. соч.М 1986ю Т.7.30-бет.
11. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”.-T:O'zbekiston Milliy insklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000y
12. “Pedagogika” fanidan izohli lug'at - T, 2010 534-535 betlar.
13. Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. -T., 1992.
14. Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi,2001.

**YOSHLAR TARBIYASIDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI  
KONSEPSIYASINING TARG'IB ETISHNING TARBIYAVIY JIHATLARI**

EDUCATIONAL ASPECTS OF PROMOTING THE CONCEPT OF FAMILY,  
NEIGHBORHOOD, SCHOOL COOPERATION IN YOUTH EDUCATION  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОДВИЖЕНИЯ КОНЦЕПЦИИ  
СЕМЕЙНОГО, СОСЕДСКОГО, ШКОЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В  
ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

*S. Qulmurodova*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada, milliylik, xalq, odob-axloq, jamiyat, mahalla, ta'lim-tarbiya, jamoa, oila, orzu, maqsad, konsepsiya haqida so'z boradi.

**Annotation:** This article about nationality, people, manners, society, neighborhood, education, community, family, dream, goal, concept.

**Аннотация:** В этой статье, о национальности, людях, нравах, обществе, соседстве, образовании, сообществе, семье, мечте, цели, концепции.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, ta'lim, milliylik, ota-ona, mahalla, jamoa, oila, maqsad.

**Key words:** Education, education, nationality, parents, neighborhood, community, family, purpose.

**Ключевые слова:** Образование, воспитание, национальность, родители, соседство, сообщество, семья, цель.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning milliy madaniy, tarixiy an'analariga, hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali zamonaviy shaxsni tarbiyalash ota-onalar, maktab, mahallalarning oldida turgan ma'suliyatli vazifalarning eng asosiysi sanaladi.

Milliy mafkuramiz va qadriyatlarimiz xalqimizning maqsad muddaolarni ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi. Shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy muammolariga javob izlaydi.

Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida anglaydi.

Milliy istiqbol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta'lim-tarbiya muassasalari va oilaning ro'li ayniqsa muhimdir.

Ta'lim – tarbiya muassasalari oila va mahalla qo'mitalari ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi milliy istiqbol g'oyamizni yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning

dunyoqarashiga ma’naviy boyligini aylanishiga singdirishni ko’maklashish, uning mohiyatini keng jamoatchilikka har tamonlama tushuntirishdan iborat.

Ta’lim-tarbiya jarayoning asosiy maqsadi va vazifasi barkamol yetuk shaxslarni tarbiyalabgina qolmasdan ya’ni komil insonni yetkazish-shakllantirishdan iboratdir. Shunday ekan biz ta’lim-tarbiya samaradorligini o’quvchilarning qay darajada bilim, ko’nikma malakaga ega ekanliklari tajriba yangilik darajalari, mustaqil bilim olishga, hayotda o’z o’rinlarini toppish uchun qanday tayyorgarligi bilan o’lchashimiz, baho berishimiz lozimligini bilishimiz shart.1.(23 b.)

Anashu maqsadda tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa’yi-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g’oyalariga sadoqatli, ma’naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturi amal bo’ldi. Mazkur Konsepsiyada taraqqiyotimizning ma’naviy-axloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg’unligi ekanligi e’tiof etiladi. Yurtimizda yuz berayotgan o’zgarishlar “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” yo’nalishida bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo etadi.

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O’zbekiston Respublikasining Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo’lishi kerak.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg’iz o’zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo’lish, ularning ko’maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo’ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o’qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o’zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o’qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta’lim – tarbiyani to’g’ri yo’lga qo’yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim – tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to’g’ri bilib oladi va hayotda to’g’ri yo’l tutadi, boshqalar bilan to’g’ri munosabatda bo’ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi. Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – degan so’z insonga o’qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo’lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o’rgatishdir, deydi olim.

Demak, Forobiy ta’lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan halqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq millat tanazzuliga mahkum. Komilni ta'mal toshi sifatini biz tarbiyada ko'ramiz.

Tarbiya jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati ijodi va ma'naviyligida ishtirok etish murakkab qarama-qarshi ijtimoiy tarixiy jarayon hisblanadi. 2(290)b

Oila, mahalla, maktab hamkorligining asosiy omili oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy va va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tamonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga vataniga muhabbat to'g'risidagi shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishini, farzandlariga chuqur dunyoviy bilimlar asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash, bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi..

”Bir bolaga yetti mahalla ota –ona” degan naqildan kelib chiqib kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim-tarbiya berish jarayonini amalgam oshirish borasida kichik vatan bo'lmish mahallaning oldida qator vazifalar turadi. Dastlab mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalgam oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda va ularni oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatish o'z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy oilalarni aniqlab ularni qo'llab-quvvatlab o'sha oila farzandlarni bilim va tarbiya olishiga boshqosh bo'ladi.


Ota-onalarning yetarli darajada bilim va ko'nikmalari yetishmasligi bois oilaviy tarbiyada ko'plab xatolar yuzaga keladi, bunday muommolar yechimini maktab ma'muriyati ota-onalar bilan izchil ishlar amalga oshirilishi talab etiladi. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirini izchil emasligi onda-sonda farzandining tarbiya jarayonini nazorat qilish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokozalar bolaning emotsional holatiga kuchli ta'sir etadi.

Ayrim ota-onalarning bolalari ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari oqibatida bolalarning ota-onalardan uzoqlashuviga, nazoratni kuchli tarzda olib bormasligidan, maktabga bo'lgan qiziqishlarini so'nishi, o'zi istiqomat qilib turgan mahalladagi bo'layotgan o'zgarishlarga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'nib boraveradi. Albatta bunday qo'pol xatolarni kelib chiqishiga birinchi o'rinda ota-onalar, undan keyin mahalla maskanlari, shuning borabarda maktab ma'muriyati ham ayibdor sanaladi.

Mahalla guzarlarida mahalladagi yoshlarni bo'sh vaqtlarini turli to'garaklar bilan band etish qog'ozda emas amalda bo'lsa, yoshlar bilan dolzarb masalalar yuzasidan ularning fikrlarini bilash ham yoshlarimizni ruhlantirishning bir timsoli sanaladi. Shunday mahallalar ham borki unda istiqomat qilayotgan yoshlarimiz o'z mahallalarini qayerda joylashganliklarni bilishadi xolos. Ulardan mahallaning

vazifalarini so’rasha ikki-yoki uchta so’z bilan kifoyalanadi. Albatta bu juda achinarli holat sanaladi, bunday kamchiliklarni barta’raf etish uchun Konsepsiyamizda keltirilgan barcha qoidalarga amal qilsak maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Ana shunday kamchiliklarni barta’raf etish maqsadida ta’lim muassasalarida olib boradigan ish faoliyatiga e’tibor qaratsak:



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogika sixologiya.X.I.Ibragimov,U.A.Yo'ldashev.X,Bobomirzayev.Toshkent -2009.
2. Mahalla fuqorolar o'zini-o'zi boshqarishning huquqiy asoslari(Mahallalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to'plami) Toshkent-2003
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi R.Movlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova Toshkent-2010.



## РАЗВИТИЕ СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОГО МЕТОДА В ЛИНГВИСТИКЕ XIX ВЕКА

*К.п.н профессор Бердиева Мукаррама Анваровна*

*Туйчиев Жасур Максим огли*

*Ташкентский международный университет Кимё*

*История лингвистика*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются развитие сравнительно-исторического метода в языкознании XIX века, основные методы исследования сравнительно-исторического метода, основополагающие труды сравнительно-исторического языкознания, понятия, необходимые для лингвистических теорий и методы научного исследования лингвистики язык полностью описан.

**Ключевые слова:** языкознание, сравнительно-исторический метод, изоморфизм, алломорфизм, этимологические словари, морфема.

### **Введение:**

Сравнительно-историческое языкознание, сопоставительное языкознание, компаративистика — раздел языкознания, изучающий родственные языки, то есть генетически родственные языки, определяющий взаимоотношения между ними, описывающий их постепенное развитие во времени и пространстве. Определение происхождения языковых семей, отдельных языков и элементов в этих системах, в том числе генетического родства между языками - происходят ли они из одного источника, - входит в задачи сравнительно-исторического языкознания.

### **Литературный анализ и методология:**

Основные методы исследования сравнительно-исторического метода, применяемые в сравнительно-историческом языкознании, состоят из следующих: 1) сравнительно-исторический метод во внешнем- поиск генетически равных, сходных слов и морфем в родственных языках и определение их результатов в родственных языках создание правил восстановления морфем; заключается в определении системы соответствий между сравниваемыми языками и определении родства языков по этому признаку; 2) событий и взаимодействий, явно свидетельствующих о наличии выявления определенных элементов на различных этапах истории этого языка в данной языковой системе; сравнение древнейших форм с новейшими формами в некоторых языках; 3) извлечение информации из анализа родных слов.

Использует сравнительно-исторический метод как основной инструмент исследования в реконструкции истории сравнительно-исторического

языкознания узбекских лингвистов; наиболее общей формой исследования является создание сравнительно-исторических грамматик и этимологических словарей. Сравнительно-историческое языкознание противопоставляет и отвергает описательное или синхроническое языкознание, нормативное и общее языкознание; в то же время в ряде вопросов она взаимодействует как с описательной лингвистикой, так и с общей лингвистикой.

#### **Результаты:**

Возникновение сравнительно-исторического языкознания, прежде всего сравнительно-исторической грамматики, составлявшей ее ядро, принято считать следствием знакомства европейских лингвистов с санскритом в конце XVII в. Работы немецкого лингвиста Ф. Боппа «О словоизменительной системе санскрита и ее сравнении с флективной системой греческого, латинского, персидского и германского языков» «Сравнительная грамматика санскрита, занда, армянского, греко-латинского, литовского языков», старославянский, готский и немецкий языки». Установление взаимоотношений между языками основано на сочетании лексики, грамматики и фонетики. Родство языков проявляется в их структурно-материальном сходстве, т. е. в этих языках морфемы и словесные показатели изучаются в сходстве структурированного материала, точнее, в связи с закономерными звуковыми адаптациями.

#### **Обсуждение:**

Сравнительно-исторический метод – предложен в начале XIX века, задача этого метода – определение закономерностей родственных языков. С помощью этого метода была предпринята попытка восстановить слова и их формы в древнейших родственных языках. Например, слово «два» — это латинское duo, греческое duo, валлийское dau, английское two, исландское tveir, голландское twee. Исторический метод часто отличают от сравнительно-исторического метода. Особенно это проявляется при внутренней реконструкции слов и их форм. В исторической лингвистике фонетическое и семантическое сходство слов и их форм определяются методом внутренней реконструкции и предполагается, что они произошли от одного корня.

#### **Заключение:**

В заключение следует сказать, что метод описания объясняет различные события и информацию в языке, его уровень и единицы. С помощью этого метода объясняется фонетика и стилистика разных языков. Сравнительный метод – без учета родства языков определяет сходство и различия. Основная задача этого метода — сравнение системы и структуры двух и более языков на разных языковых уровнях. Иногда этот метод называют сравнительно-типологическим, гибридным, контрастным, конфронтационным. Фактически сравнительный метод является частью типологического изучения языков.

**Список литературы:**

1. Реформатский А.А. Введение в лингвистику. - М.: Аспект-пресс, 2007.
2. Гамидов З. История лексикографии и рукописных словарей. - Ташкент: Адолат, 2004.
3. Миртожиев М. Лексикология и лексикография узбекского языка. - Т., 2000.
4. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. - Минск, 2004.
5. Сафаров Ш. Когнитивная лингвистика. Джизак. «Сангзор» – 2006.
6. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. - Т.: Фан, 2007.

## ВЛИЯНИЕ ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ГЕОПОЛИТИЧЕСКУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ В ПОСТСОВЕТСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ

*К.п.н профессор Бердиева Мукаррама Анваровна  
Хабибуллаев Дилмурод Хабибулла огли  
Ташкентский международный университет Кимё  
Этнолингвистика*

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние этнолингвистических факторов на геополитическую стабильность в постсоветском регионе. Особое внимание уделено политизации языковой политики, роли этнолингвистических различий в формировании национальной идентичности, а также использованию этих факторов внешними игроками, такими как Россия и страны Запада. Анализ показывает, что этнолингвистические факторы не только усложняют внутреннюю политику стран региона, но и повышают их уязвимость к внешним воздействиям.

**Ключевые слова:** этнолингвистика, постсоветское пространство, языковая политика, национальная идентичность, геополитическая стабильность, международное влияние.

### **Введение:**

После распада Советского Союза постсоветский регион стал полем сложных этнополитических процессов, существенно повлиявших на геополитическую стабильность региона. Этнолингвистические факторы, в том числе языковая политика, национальная идентичность и межэтнические отношения, играют важную роль в формировании политических и социальных структур стран, получивших независимость. Эти факторы, в свою очередь, влияют на международные отношения, особенно в контексте отношений постсоветских республик с Россией, а также с Западом. Учет этнолингвистических аспектов позволяет лучше понять природу конфликтов в регионе и оценить перспективы их разрешения.

### **Литературный анализ и методология:**

Одним из наиболее заметных аспектов является языковая политика, которая часто становится предметом политизации. В ряде постсоветских стран наблюдается стремление снизить влияние русского языка как символа советского прошлого и укрепить позиции национальных языков. Например, в странах Балтии, Украине, Молдове и Грузии принятие законов, ограничивающих использование русского языка в образовании, средствах массовой информации

1. World Health Organization. (2023). *Hepatitis*. Retrieved from <https://www.who.int>
2. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). (2023). *Hepatitis: Key Facts and Information*. Retrieved from <https://www.cdc.gov/hepatitis>
3. Mayo Clinic Staff. (2023). *Hepatitis Overview*. Mayo Clinic. Retrieved from <https://www.mayoclinic.org>
4. Schiff, E. R., Maddrey, W. C., & Sorrell, M. F. (Eds.). (2017). *Diseases of the Liver and Biliary System*. Wiley-Blackwell.
5. Lok, A. S. F., & McMahon, B. J. (2021). *Chronic Hepatitis B: Update on Recommendations*. *Hepatology*, 67(3), 1560–1570.
6. Pawlotsky, J. M., Negro, F., & Aghemo, A. (2022). *Hepatitis C Management and Treatment Strategies*. *Journal of Hepatology*, 73(Suppl 1), 123–135.
7. Koff, R. S. (2019). *Autoimmune Hepatitis: Diagnosis and Treatment*. *Clinics in Liver Disease*, 15(2), 111–129.
8. Harrison, P. M. (2020). *Alcohol-related Hepatitis: Clinical Features and Treatment Options*. *Liver International*, 35(1), 28–39.
9. Liver Foundation. (2023). *Understanding Hepatitis and Liver Health*. Retrieved from <https://www.liverfoundation.org>
10. EASL Clinical Practice Guidelines. (2023). *Management of Hepatitis B and C Viruses*. *Journal of Hepatology*, 76(3), 102–121.



UDK.636.92

## QUYONCHILIK FERMALARIDA VIRUSLI KASALLIKLARNING OLDINI OLISH

*Safarov Muradjon Mavlonovich  
Akmalxonov Talat Shavkatovich  
Kimsanboyev Nodir Butabek o'g'li  
Toshkent davlat agrar universiteti  
e-mail: [muradjonsafvet@gmail.com](mailto:muradjonsafvet@gmail.com)*

*Prevention of viral diseases in rabbit farms  
Safarov Muradjon Mavlonovich  
Akmalxonov Talat Shavkatovich  
Tashkent State Agrarian University  
Tashkent, Uzbekistan*

**Аннотация.** РХД, вызванный РХДВ и РХДВа, демонстрирует высокую заболеваемость (до 100%) и смертность (40-100%) у взрослых европейских кроликов. Молодые кролики в возрасте 6-8 недель менее подвержены заражению, а котята моложе 4 недель не заболевают. Недавно появившийся РХДВ2 вызывает смерт и заболевания у кроликов в возрасте всего 15 дней. Показатели смертности от РХДВ2 более вариабелны и составляют 5-70%. Изначально менее вирулентная, патогенност РХДВ2 возрастает и в настоящее время аналогична той, которая обнаруживается при РХДВ и РХДВа. Случаи смерти от РХДВ2 были подтверждены у кроликов, ранее вакцинированных против РХДВа.


**Ключевые слова:** вирулентност, патогенност, РХДВ2, вариабелност, диагностика, вирус, геморрагическая болезн, капсид, кроиреконструкция, , РНК, геном

**Annotation:** RHD caused by RHDV and RHDVa exhibits high morbidity (up to 100%) and mortality (40-100%) in adult European rabbits. Young rabbits 6-8 weeks old are less susceptible to infection, and kittens younger than 4 weeks old do not become infected. The newly emerged RHDV2 causes death and disease in rabbits as young as 15 days old. Mortality rates for RHDV2 are more variable, ranging from 5-70%. Initially less virulent, the pathogenicity of RHDV2 increases and is now similar to that found with RHDV and RHDVa. Deaths from RHDV2 have been confirmed in rabbits previously vaccinated against RHDVa.


**Key words:** virulence, pathogenicity, RHDV2, variability, diagnostics, virus, hemorrhagic disease, capsid, cut reconstruction, RNA, genome

**Kirish.** Uy hayvonlarining orasida quyonlar inson ehtiyojlari uchun keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Quyonchilik chorvachilikning juda foydali sohasidir. Shuningdek, yaqinda uyda quyonlarni mo'ynali uy hayvonlari sifatida saqlash odatiy holga aylandi. Biroq, bu hayvonlarni ko'paytirish va ularga g'amxo'rlik qilish kasallikdan xoli emas. Xavfli kasalliklardan biri quyon virusli gemorragik kasalligi (QV GK, VGBK, RHD), o'ta yuqumli kasallik bo'lib, organlarda qon ketishining ko'payishi va 100% gacha o'lim bilan tavsiflanadi..

RHD to'satdan o'zini namoyon qiladi va hayvonlarning ommaviy o'limiga olib keladi. Bugungi kunda ushbu kasallik, uning tarqalishi, diagnostika usullari va profilaktika choralari haqida ma'lum bo'lgan narsa –



RHD virusi - bu diametri taxminan 35-40 nm, ikosahedral simmetriya va 6,4-8,5 kb chiziqli musbat ma'noli RNK genomiga ega bo'lgan virus.



Rasm 2. Quyonning kalisivirusi CSIRO

Quyoning virusli gemorragik kasalligi (QVGK, VGBK, RHD)- kalisivirus (Lagovirus turi, Caliciviriade oilasi) keltirib chiqaradigan o'tkir, o'ta yuqumli kasallik bo'lib, Evropa quyoni (*Oryctolagus cuniculus*) zararlab, barcha organlarida, ayniqsa o'pka va jigarda trombogemorragik sindromning namoyon bo'lishi va jigar nekrozi bilan tavsiflanadi. [1–3].

RHD juda yuqumli. Tajribalarda quyonglarga og'iz, burun, teri osti, mushak ichiga yoki tomir ichiga yuborish, shuningdek, chivinlar, boshqa hasharotlar va yovvoyi hayvonlar orqali mexanik yuqishi isbotlangan [2-6].

Infeksiya manbai kasal va tuzalib ketgan quyonglardir. Sog'lom quyonglar kasal va tuzalayotgan hayvonlar [7] bilan birga bo'lganda, asosan nafas olish yo'llari orqali, shuningdek fomitlar, jumladan, ifloslangan oziq-ovqat, suv va choyshablar orqali yuqadi. Bundan tashqari, virusni yangi hududlarda tarkajishining asosiy yo'llaridan biri zararlangan quyong go'shtini import qilishdir (virus muzlashdan omon qoladi) Virus infeksiya manbai sifatida -40°C haroratda ham besh yildan ortiq saqlanadi [8].

**Tarqalishi.** RHD birinchi marta 1983 yil qishda Xitoy Xalq Respublikasining Jiangsu provinsiyasida aniqlangan [9]. Kasallik angor quyonglari orasida tarqalib, to'qqiz oy ichida 14 million hayvonlarni nobud qildi [7]. Virus 1988 yilda Yevropaga yetib bordi va u yerda tez tarqaldi. 1992 yilda kasallik Buyuk Britaniyada qayd etilgan. 1990-yillarning oxiriga kelib, RHD 40 mamlakatga tarqaldi va Evropa, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Kubada yovvoyi quyong va yovvoyi quyong populyatsiyalarida endemik bo'lib qoldi. Shu bilan birga, Evropada RHD tadqiqotlari hajmining tez o'sishi kuzatildi, bu muammoning dolzarbligi va quyongchilikda katta iqtisodiy yo'qotishlar bilan bog'liq edi [2]. 2010 yilda yangi turdagi virusning (RHDV2) birinchi tarqalishi Frantsiyada qayd etilgan [3]. Keyin ushbu virus keltirib chiqaradigan kasallikning tarqalishi 2011 yilda Italiya va Ispaniyada, 2012 yilda Portugaliyada qayd etilgan. Virus genetik va antigenlik jihatdan klassik RHD virusidan farq qilgan.

Rossiya va MDH davlatlariga kelsak, 1987 yildan buyon kasallik Ukrainaning beshta viloyatida (Sumsk, Xarkov, Kiev, Zaporozhye, Odessa), Belarus, Moldova, Latviya, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonda qayd etilgan.

2015 yilda Avstraliya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Benin (Afrika) va Tunisda quyong virusli gemorragik kasalligining avj olishi rasman tasdiqlandi. 2016 yilda OIE ma'lumotlariga ko'ra quyong virusli gemorragik kasalligi Daniya (4), Irlandiyada (2), Norvegiya (2), Finlyandiya (1), Shveytsariya (4), Shvetsiya (1), Kot-d'Ivuar (Afrika) da qayd etilgan. (5), Kanada (2), Avstraliya (3). 2017 yildan beri RHDV2 epidemiyasi Avstraliya (1), Daniya (7), Finlyandiyada (1), Norvegiyada (2) qayd etilgan. Kanada (10), Isroil (8) va Rossiya (2) kabi mamlakatlarda 21 ta RHDV2 epidemiyasi qayd etilgan 2018 yilda vaziyat keskin o'zgardi. Bundan tashqari, RHDVa epidemiyalari Yangi Zelandiyada (1) va AQShda RHDV (1) aniqlangan.



Rasm 3. Dunyoda quyonlarning virusli gemorragik kasalligining epizootik holati

**Iqtisodiy zarar** Asosiy iqtisodiy zarar hayvonlarning ommaviy o'limidan kelib chiqadi va 100% gacha etadi. Katta xarajatlar cheklovchi va veterinariya-sanitariya tadbirlarini amalga oshirish bilan ham bog'liq [4]. Kasallik katta iqtisodiy zarar bilan bog'liq, chunki amaldagi veterinariya qoidalariga ko'ra, fermadagi barcha quyonlar darhol so'yish kerak [1, 3, 4].

**Davolash va vaktsinalar** Davolash uchun maxsus anti-VGBV zardobi ishlab chiqilgan bo'lib, u kasallikning birlamchi klinik belgilarining rivojlanishi davrida ham 0,5 sm hajmdagi bir martalik in'ektsiyadan keyin terapevtik ta'sir ko'rsatadi. VGBV epizootiyasi davrida ishlab chiqarish sharoitida sarumning terapevtik ta'sirining samaradorligi 90 dan 97% gacha. Mahalliy dekorativ quyonlarda VGBVdan o'limni oldini olish uchun chorva mollarining mumkin bo'lgan yo'qotishlarini bartaraf etish uchun fermer xo'jaliklarida bir nechta vaktsinalar qo'llaniladi. Ulardan eng keng tarqalganlari "Pestorin" ("Bioveta", Chexiya tomonidan ishlab chiqarilgan), "Gemorragivak" (Bio-test-laboratoriya, Ukraina), VGBV ga qarshi to'qimalarni inaktivatsiyalangan vaktsina (Pokrov, Rossiya), GBC alyuminiyiga qarshi to'qimalarni inaktivatsiyalangan vaktsina. gidroksidi (Pokrov, Rossiya), HBK ga qarshi vaktsina (Ukrainaning Sumi biofabrikasida ishlab chiqarilgan), inaktivatsiyalangan moyli "Rivak" emlash (Mevak, Slovakiya). FITSVIMda VGBV-2 ga qarshi vaktsina namunasi ishlab chiqarildi va uni o'rganish ishlari davom etmoqda.

**Profilaktika choralari.** VGBV ning oldini olish quyonchilik fermalari, korxonalar va xususiy hayvonlar egalari tomonidan veterinariya va sanitariya qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iborat. Kasallik paydo bo'lganda, fermer xo'jaligi nosoqlom deb e'lon qilinadi va cheklovlar kiritiladi. Kasal va shubhali quyonlar so'yish uchun yuboriladi va murdalar utilizatsiya qilinadi. Qolgan quyonlar, oldingi emlash vaqtidan qat'i nazar, VGBV vaktsinasi bilan emlanishga majbur.

**Dezinfektsiya choralari.** Dezinfektsiya xloramining 5% eritmasi, formaldegidning 2% eritmasi, faol xlorning 5% miqdorida kaltsiy gipoxlorit eritmasi bilan amalga oshiriladi. Noqulay xo‘jaliklarning quyon terilari texnologik qayta ishlash jarayonida dezinfektsiya qilinadi. Noqulay hududlardagi sog'lom quyonlarning go'shti qaynatiladi va noqulay ma'muriy hududda sotiladi.

### **Xulosalar**

#### **VGBV tarqalishining oldini olishning muhim shartlari:**

1. Kasallik haqida egalarini o'z vaqtida xabardor qilish.
2. Fermer xo‘jaliklarida bioxavfsizlik choralariga rioya qilish va takomillashtirish.
3. Yovvoyi quyon va quyonlar orasida kuzatish, xavf tahlili.
4. VGBV2 tarqalishining oldini olish uchun vaktsinani yakunlash va ro'yxatdan o'tkazish, preparatni ommaviy ishlab chiqarishga tayyorlash kerak.

### **Adabiyotlar:**

1. Glison, M.; Petris, O.A. (may 2020 g.). "Новые инфекционные заболевания кроликов". *Veterinary kliniki Severnoy Ameriki: praktika s ekzoticheskimi jivotnymi*. **23** (2): 249-261. doi:10.1016 /j.cvex.2020.
2. Ye.Ivashchenko Vgbk u krolikov: osnovnyye simptomy, меры profilaktiki i osobennosti
3. Kerr, P.Dj.; Kitchen, A.; Xolms, YeS (2009). "Proisxozhdeniye i filodinamika virusa gemorragicheskoy bolezni krolikov" . *Virusologicheskij jurnal*. **83** (23): 12129-12138. doi:10.1128/JVI.01523-09 PMC 2786765. PMID197.
4. Kerr, P.Dj.; Donnelly, T.M. (may 2013 g.). *Virusnyye infektsii krolikov. Veterinarnyye kliniki Severnoy Ameriki: praktika s ekzoticheskimi jivotnymi*. **16** (2):437-468. doi:10.1016/j.cvex.2013.02.002PMC7110462PMID2364287
5. Rokki, MS; Deglish, MP (2018). "Diagnostika i profilaktika virusnoy gemorragicheskoy bolezni krolikov 2". *Na praktike*. **40** (1): 11-16. doi:10.1136/inp.k54S2CID80154118
6. Fiala, Djennifer (2 avgusta 2008 g.). "Yugo-zapad SShA stalkivayetsya so vspryshkoy smertelnoy bolezni krolikov" *Vin.com*. Provereno 21 aprelya 2020 goda.
7. Chju, J; Myao, Q; Tan, Y; i dr. (2017). "Vkluyeniye motiva, raspoznayushchego reseptor Arg-Gly-Asp, v kapsidnyy belok virusa gemorragicheskoy bolezni krolika pozvolayet kultivirovat virus" *Jurnal biologicheskoy ximii*. **292** (21): 8605-8615. doi: 10.1074/jbc.M117.780924 PMC 5448090 PMID28381555
8. Fransisko, Massachusets (13 sentyabrya 2019 g.). "Nobivak Mikso-RHD Plus". *Yevropeyskoye agentstvo po lekarstvennyim sredstvam*. Provereno 1 maya 2020 goda.
9. Le Minor, O.; Bushe, S.; Judu, L.; Melle, R.; Suris, M.; Le Mullek, T.; Nikolye, A.; Beylvert, F.; Sigono-Floxle, A. (2019). " Gemorragicheskaya bolezni krolikov:

eksperimentalnoye issledovaniye nedavnego vysokopatogennogo shtamma GI.2 / RHDV2 / b i osenka effektivnosti vaksiny" Mirovaya nauka o krolikax. **27** (3): 143. doi:10.4995/wrs.2019.11082 uroven LPV:10251/126955

10. Kennedy, Massachusetts; Mellon, PROTIV; Kolduell, G.; i dr. (1995). "Virulisidnaya effektivnost novyx soyedineniy chetvertichnogo ammoniya". Jurnal Amerikanskoy assosiasii veterinarnykh klinik**31** (3): 254–258. doi:10.5326/15473317-31-3-254 PMID7634062

## INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

*Eshchanova Gulzira Endirovna*

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi*

*Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası*

*ingliz tili fani katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiya tili sifatida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Bu tilni o‘rganish, nafaqat akademik, balki professional sohalarda ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy va samarali metodlarni qo‘llash zarur. Interfaol metodlar, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydigan pedagogik yondashuvlar, bu jarayonda alohida ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** ingliz tili, interfaol metodlar, dars jarayoni, amaliyot, zamonaviy texnologiyalar, metodlar, fikr almashish.

Interfaol metodlar o‘quvchilarga dars jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Bunday metodlar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini bildirishiga, savollarga javob berishiga va bir-birlari bilan muloqot qilishiga yordam beradi. Natijada, dars jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi, bu esa ularning o‘rganish jarayonini yanada chuqurlashtiradi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar darsda faqatgina passiv tinglovchi bo‘lishlari o‘rniga, faol ishtirokchilar sifatida o‘zlarini his qilishadi. Bu esa ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda etish, muammolarni hal etish va jamoaviy ishlarni amalga oshirish orqali o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. O‘quvchilarning o‘zaro muloqoti, ular o‘rganayotgan tilni yanada chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar. Jamoaviy ishlar, munozaralar va rolli o‘yinlar kabi faoliyatlar o‘quvchilarning guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularga kelajakda professional muhitda muvaffaqiyatli ishlashga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi. O‘quvchilar bir-birlaridan o‘rganish, fikr almashish va tajriba bilan bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jamoaviy ishlar orqali o‘quvchilar o‘zaro aloqalarni mustahkamlashadi va bir-birlarining fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham samarali hisoblanadi. O‘quvchilar tilni amaliyotda qo‘llash orqali o‘zlarining so‘z boyligini kengaytirishadi. Munozaralar, guruhviy muhokamalar va roli o‘yinlar o‘quvchilarning tilni yanada erkin va ishonch

bilan ishlatishlariga yordam beradi. Bu esa ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda etishda, yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish orqali o‘z bilimlarini kengaytiradilar. Interfaol metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. O‘quvchilar muammolarni hal etish, fikrlarini asoslash va boshqa fikrlarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar nafaqat ingliz tilini o‘rganishda, balki boshqa sohalarda ham foydali bo‘ladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etish va o‘z qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, shuningdek, o‘quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi va ularni yanada mustaqil shaxslar sifatida rivojlantiradi.[1]

Shuningdek, interfaol metodlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini ham oshiradi. O‘quvchilar dars jarayonida o‘z faoliyatlarini baholash, o‘z xatolaridan o‘rganish va o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. O‘quvchilar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali o‘zlarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadilar.[2]

Ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. O‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, ularni rag‘batlantirish va darsni qiziqarli qilish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘qituvchilarning professional rivojlanishi va o‘z bilimlarini yangilashga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z darslarini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvlarni ishlab chiqadilar. Interfaol metodlar o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. O‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish, tajriba bilan bo‘lishish va birgalikda ishlash orqali o‘zaro munosabatlarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lishlariga yordam beradi. O‘quvchilar o‘zaro munosabatlar o‘rnatish orqali jamoaviy ishlarni amalga oshirishda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rganadilar. Umuman olganda, ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning bilimlarini yanada chuqurlashtirish, motivatsiyasini oshirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. [3]

Bu metodlar o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda ishlashini, til ko‘nikmalarini rivojlantirishini va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishini ta‘minlaydi. Shuning uchun, ingliz tilini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash zaruriy talabdir. O‘qituvchilar, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olib, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ularning o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin. Bu nafaqat ingliz tilini o‘rganish, balki o‘quvchilarning shaxsiy va



professional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlar o'quvchilarning kelajagi uchun muhim poydevor yaratadi. Interfaol metodlar o'qituvchilarga o'z darslarini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. O'qituvchilar o'z darslarida interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish, ularning qiziqishini oshirish va o'rganish jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin. O'qituvchilar o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishlarini ta'minlash orqali ularning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar o'zaro aloqalarni mustahkamlash, fikr almashish va tajriba bilan bo'lishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'zaro munosabatlar o'rnatish orqali jamoaviy ishlarni amalga oshirishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rganadilar. Natijada, o'quvchilar bir-birlaridan o'rganish, fikr almashish va tajriba bilan bo'lishish orqali o'zaro munosabatlarini rivojlantiradilar. Interfaol metodlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. O'quvchilar darsda faol ishtirok etish, o'z fikrlarini ifoda etish va bir-birlari bilan muloqot qilish orqali o'z bilimlarini kengaytiradilar. Bu esa ularning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. O'quvchilar o'zaro aloqalar o'rnatish, jamoaviy ishlarni amalga oshirish va muammolarni hal etish orqali o'z ko'nikmalarini rivojlantiradilar.[4]

**Xulosa:** Ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchilarning o'zaro muloqotini, til ko'nikmalarini va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos yaratadi. Shunday qilib, ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash zaruriy talabdir. Bu nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish, balki ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A'zimov, S. (2020). "Interfaol ta'lim metodlari: nazariy va amaliy jihatlar". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Ismoilov, D. (2021). "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Murodov, B. (2019). "Ta'limda interfaol metodlar va ularning samaradorligi". Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
4. Rahimov, A. (2022). "O'qitishda interfaol metodlar: nazariy asoslar va amaliyot". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Tashkent, N. (2020). "Interfaol ta'lim metodlarini qo'llash: ingliz tilini o'rganish tajribasi". Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
6. Xudoyberdiyev, O. (2023). "Ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlarning o'rni". Andijon: Andijon davlat universiteti.
7. Yuldasheva, M. (2021). "Zamonaviy ta'limda interfaol metodlar va ularning o'quvchilarga ta'siri". Namangan: Namangan Davlat Universiteti.

## PEDAGOGNING JAMOA BILAN MUOMALASI

*Namangan davlat pedagogika instituti*  
**Zaynobidinova Naima Inomidinova**  
*katta o'qituvchisi, f.f.n.,*  
**Abdirahmonova Zilola Muxtorjonovna**  
*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*  
*(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi*  
*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada pedagogning jamoa bilan muomala madaniyati va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilinadi. Maqolada milliy qadriyatlar, xususan, adolat, bag'rikenglik, hurmat va ishonch tamoyillari asosida, hamkasblar, o'quvchilar va ota-onalar bilan ochiq va shaffof muloqot o'rnatishi, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ekanligi qayd etiladi. Bu orqali jamoa bilan muomala qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari, shuningdek, pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga moslashish zaruriyati tahlil qilinadi. Samarali muloqot pedagogning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, jamoaviy ahillikni va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik muomala, milliy qadriyatlar, ta'lim-tarbiya, jamoa bilan muloqot, hurmat va ishonch, adolat va shaffoflik, ijobiy muloqot, hamkorlik, kommunikatsiya muammolari, pedagogik madaniyat.

**Annotation:** This article analyzes the culture of communication between educators and their team, as well as its importance in the education and upbringing process. The article highlights the necessity of establishing open and transparent communication with colleagues, students, and parents based on national values, particularly the principles of justice, tolerance, respect, and trust, to ensure the success of the educational process. It also examines the challenges that may arise in team communication, their solutions, and the need for educators to engage in self-improvement and adapt to national values. Effective communication is emphasized as a factor that not only enhances the professional skills of educators but also fosters team cohesion and improves the effectiveness of the education process.

**Keywords:** pedagogical communication, national values, education and upbringing, teamwork interaction, respect and trust, justice and transparency, positive communication, collaboration, communication issues, pedagogical culture

**Аннотация:** В данной статье анализируется культура общения педагога с коллективом и её значимость в процессе обучения и воспитания. В статье подчёркивается необходимость установления открытого и прозрачного взаимодействия с коллегами, учениками и родителями на основе национальных ценностей, в частности принципов справедливости, терпимости, уважения и доверия, для обеспечения успешности образовательного процесса. Также рассматриваются возможные проблемы, возникающие при общении в коллективе, пути их решения, а также необходимость саморазвития педагога и

его адаптации к национальным ценностям. Эффективное общение подчёркивается как фактор, способствующий не только повышению профессионального мастерства педагога, но и укреплению командного единства и повышению результативности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** педагогическое общение, национальные ценности, образование и воспитание, взаимодействие с коллективом, уважение и доверие, справедливость и прозрачность, позитивное общение, сотрудничество, проблемы коммуникации, педагогическая культура.

**Kirish.** O‘zbek milliy qadriyatlari asosida shakllangan pedagogik faoliyatda jamoa bilan samarali muloqot qilish masalasi muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati pedagogning nafaqat o‘quvchilari, balki hamkasblari va ota-onalar bilan muloqot madaniyatiga ham bog‘liqdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: "Farzandlarimizni zamonaviy bilim va ma’naviyat ruhida tarbiyalash, ularga mustahkam hayotiy ko‘nikmalarni singdirish bugunning eng ustuvor vazifasi hisoblanadi."<sup>1</sup> Shu bilan birga Abdulla Avloniyning "Tarbiya yo‘q joyda, insoniyat jamiyati taraqqiy qilmaydi"<sup>2</sup> fikrlarni eslatib o‘tamiz. Shunday ekan, pedagogning jamoa bilan muomala qilish qobiliyati zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

### Asosiy qism

1. **Jamoa bilan muomalada milliy qadriyatlarning o‘rni.** O‘zbekistonning boy madaniy merosi pedagogik faoliyatda asosiy o‘rin tutadi. Alisher Navoiy asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda adolat va bag‘rikenglik asosiy tamoyil sifatida ilgari surilgan. Jumladan:

"Insonni inson qilgan odobdir,  
Odobdan uzoq qolgan, xudobezdir"<sup>3</sup>.

Bu o‘git pedagogga jamoa a‘zolari bilan muomalada odob-ahloq me‘yorlariga qat’iy rioya qilish zarurligini uqtiradi. Ayniqsa, yosh avlodga bilim berishda pedagog o‘zini doimo namunali tutishi va jamoaga hurmat ko‘rsatishi shart.

2. **Pedagogik muomala tamoyillari.** Pedagogning jamoa bilan muloqoti samarali bo‘lishi uchun quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

a) hurmat va ishonch: har bir jamoa a‘zosiga teng yondashish va uning fikriga e’tibor qaratish. Aynan shu tamoyilga quyidagi misolni keltirishimiz mumkin.

Bir jamoa yangi loyiha ustida ishlayotganda, rahbar bir xodimning takliflarini eshitmay, faqat o‘z fikrlarini o‘tkazishga urinadi. Shu bilan birga, boshqa xodimlar rahbarning bu qaroriga qarshi chiqishga jur‘at etmaydi, chunki ular fikr bildirsalar, tanqid qilinishidan qo‘rqishadi. Bu vaziyatda jamoada hurmat va ishonch muammosi paydo bo‘ladi.

### Muhokama uchun savollar:

1. Bu holatda jamoada hurmat va ishonchni qanday tiklash mumkin?

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: 2023

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: 1912.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 1490.

2. Xodimlarning fikrlarini tinglash va ularga ishonch bildirish rahbarga qanday foyda keltiradi?

3. Jamoaning har bir a’zosi hurmat va ishonch muhitini saqlash uchun nimalar qilishi kerak?

b) dolat va shaffoflik: qabul qilinadigan qarorlarning barcha uchun ochiq va tushunarli bo’lishi. Yuqorida berilgan vaziyatga adolat va shaffoflik bilan quyidagi yechimlarni qo’llashimiz mumkin.

1. Shaffof muloqot: Rahbar barcha jamoa a’zolari bilan ochiq muloqot qilish uchun yig’ilish tashkil qiladi. Unda har bir xodim o’z fikrini ochiq bildirish huquqiga ega ekanligi va tanqid yoki rad etilishdan qo’rqmasligi ta’kidlanadi. Shunda rahbar bir necha kishining fikriga birdaniga qarshi chiqqa olmaydi va jamoa orasida adolat bilan birga ahillik ham oshib boradi.

2. Adolatli qaror qabul qilish: Loyihaga oid barcha takliflar yozma ravishda to’planadi va jamoa tomonidan birgalikda muhokama qilinadi. Qaror qabul qilishda eng maqbul va samarali taklif tanlanadi, nafaqat rahbarning yoki ma’lum bir xodimning fikri ham ahamiyatli ekanligi nazarda tutiladi. Bu tarzda muhokamaga hech kim qarshilik qila olmaydi.

3. Tinglash madaniyatini rivojlantirish: Rahbar jamoa a’zolarining fikrlarini tinglab, ular uchun minnatdorlik bildiradi va ularning har biri loyihaga qanday hissa qo’shayotganini alohida ta’kidlaydi. Rahbar bu harakati bilan xodimlariga yaxshigina motivatsiya beradi.

4. Ishonchni qayta tiklash: Rahbar jamoaning har bir a’zosiga ishonishini ko’rsatish uchun ularga ma’lum mas’uliyatlar yuklaydi va ularning ish natijalarini qadrlaydi. Bu yechimlarga umumiy holatda quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Adolat va shaffoflikni ta’minlash orqali jamoada hurmat va ishonch muhitini qayta tiklash mumkin. Bu esa loyihaning muvaffaqiyatli bajarilishi va jamoaning samaradorligini oshiradi.

a) ijobiy muloqot: konfliktlardan qochish va muloqotni konstruktiv yo’nalishda olib borish. Jamoada ijobiy muloqot har bir jamoa a’zosini ijobiy muhitini shakllantiradi.

b) hamkorlik: jamoa bilan birgalikda maqsadlarga erishish uchun yagona yo’lni belgilash.

Bu tamoyillar milliy tarbiya tizimining negizini tashkil etadi va har bir pedagog tomonidan amalda qo’llanilishi zarur.

3. **Jamoa bilan muomala madaniyatini rivojlantirish** Jamoa bilan samarali muomala qilish pedagogdan doimiy o’z-o’zini rivojlantirishni talab qiladi va quyidagi usullarni qo’llash mumkin:

1. Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish: Pedagogika va psixologiya fanlari bo’yicha yangi adabiyotlarni o’rganish va amaliy qo’llay olish.

2. Amaliy mashg’ulotlar: Nutq madaniyati va nizolarni hal qilish bo’yicha treninglarda qatnashish.

3. Tajriba almashish: Hamkasblar bilan muloqot orqali samarali yondashuvlarni o’zlashtirish.

4. Milliy qadriyatlarga moslashish: Milliy odob-axloq qoidalarini faoliyatga joriy qilish.

5. Muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni hal qilish: Jamoa bilan muloqot qilish jarayonida pedagog ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Kommunikatsiya muammolari: Fikrlar noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki tushunmovchiliklar yuzaga kelishi.

Motivatsiya yetishmasligi: Jamoa a‘zolarining faoliyatga nisbatan qiziqishi past bo‘lishi.

Konfliktlar: Fikrlarning to‘qnashuvi yoki nizolar.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun pedagog sabr-toqatli bo‘lib, ijobiy muloqot yo‘nalishidan chiqmasligi lozim. Adolatli va bag‘rikeng yondashuv nizolarni minimallashtirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Pedagogning jamoa bilan muomalasi ta‘lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, milliy qadriyatlarimizga mos keladigan yondashuvni talab qiladi. Hurmat, adolat, bag‘rikenglik va hamkorlik tamoyillari asosida shakllangan muomala pedagogning nafaqat kasbiy muvaffaqiyatini, balki jamoa o‘rtasida hurmat-e‘tibor qozonishini va obro‘ga ega bo‘lish qobiliyatini ham ta‘minlaydi. Shu bois, pedagog doimo o‘z mahoratini oshirib borishi, milliy va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: 2023
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: 1912.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 1490.
4. Xayrulla Qosimov. Pedagogika asoslari. Toshkent: 2018.
5. Husniddin Qo‘chqorov. Ta‘limda milliy qadriyatlar. Samarqand: 2020.
6. Umarov R. Pedagogik muloqot san‘ati. Toshkent: 2022.
7. <https://www.ziyouz.com>.

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MIKROBIOLOGIYA FANINI  
O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH**

*Sabohat Saparova Izzatillayevna*

*Navoiy davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti*

*Umum tibbiy fanlar kafedrası*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida mikrobiologiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yin, ta’lim, ijodiy muhit, konferensiya, taqdimot, ta’lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o‘quv fani .

**Аннотация:** В данной статье описано использование дидактических игровых технологий в преподавании микробиологии на основе интегративного подхода.

**Ключевые слова:** дидактическая игра, образование, творческая среда, конференция, презентация, образование-воспитание, репродуктивный, продуктивный, учебный предмет.

**Abstract:** This article describes the use of didactic game technologies in teaching microbiology based on an integrative approach.

**Key words:** didactic game, education, creative environment, conference, presentation, education, reproductive, productive, educational subject.

Tibbiyot oliygothlarida mikrobiologiya fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun xususiy metodik va lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mikrobiologiyani o‘qitishda xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalardan didaktik o‘yin texnologiyalari, modulli ta’lim texnologiyalari, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli, talabalarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi. O‘yin faoliyati o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1.O‘yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni talabalarning o‘z faoliyatini tahlil va nazorat qilishi, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi, o‘z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi.

2. Ijodiy muhit tarkib topadi. O‘yin ishtirokchilari muammolarni hal etishda tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar.

3. O‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi. Shu asnda his-hayajonli vaziyat paydo bo‘ladi. His-hayajonga yo‘g‘rilgan bilim, ko‘nikmalar inson xotirasida bir umr muhrlanib qoladi.

4. O‘yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinadi. O‘yin ishtirokchilarida ijtimoiy normalarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

5. O‘yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va talabalarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etish, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinli darslarni talabalarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga ko‘ra:

- syujetli-rolli o‘yin;
- ijodiy o‘yinlar;
- ishbilarmonlar o‘yini;
- konferensiya;
- taqdimot;
- o‘yin-mashqlarga ajratiladi.

Boshqa o‘quv va mehnat faoliyati kabi o‘yin faoliyati tarkibiga quyidagilar:

- a) o‘yinning syujeti;
- b) o‘yin ishtirokchilari bajaradigan muayyan rollar, vazifalar;
- v) ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar (usullar);
- g) real yoki shartli ravishdagi o‘yin vositalaridan foydalanish;
- d) o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat, muloqot kiradi.

Talabalarning bilish faoliyatini o‘yin faoliyati bilan uyg‘un holda tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- Didaktik o‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni aniqlash,
- Didaktik o‘yin syujeti va ishtirokchilar faoliyatini loyihalash;
- O‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash;
- Didaktik o‘yinni maqsadga muvofiq tashkil etish, uning mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan hal etishiga e‘tiborni qaratish;

- O‘yin ishtirokchilarini rag‘batlantirish;
- Olingan natijalarni tahlil qilish;
- Olingan natijalarga muvofiq holda o‘yin strukturasi va borishiga
- tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

Didaktik o‘yinli darslar orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

1. Ta‘lim-tarbiya berish;
2. Shaxsni rivojlantirish;

3. Talabalarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish;
4. Bilimlarni nazorat va tahlil qilish;
5. Kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo‘naltirish;
6. Talabalarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish;

Ta’lim-tarbiya jarayonida bu funksiyalar majmua holda amalga oshiriladi, lekin quyida o‘rganiladigan didaktik o‘yin turlarida qaysidir funksiya ustunlik qiladi. Masalan, konferensiya darslarida shaxsni rivojlantirish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar unga ilova bo‘ladi, o‘yin mashqlarda bilimlarni nazorat va tahlil qilish ustunlik qiladi, qolgan funksiyalar uni to‘ldiradi va h.k.

O‘qituvchi didaktik o‘yinli darslarni o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi lozim:

- Didaktik o‘yinli darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;
- Amaliyotdagi va jamiyatdagi muhim muammolarga bag‘ishlangib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;
- Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
- O‘yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;
- Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishish kerak.

Didaktik o‘yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo talabalarning mazkur o‘yinlarga puxta va qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishlariga, o‘qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish va mohirlik bilan boshqarishiga bog‘liq.

O‘qituvchilarning didaktik o‘yinga tayyorgarlik ko‘rish faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga olishi:

- Didaktik o‘yin maqsadi, vazifasi, olib borilish tartibi, qoidalari bilan tanishish;
- Didaktik o‘yin maqsadi va vazifasidan kelib chiqadigan muammoli vaziyatni anglash;
- Muammoli vaziyatdan chiqishning eng samarali yo‘llarini topish;
- Har bir o‘quvchi o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni anglashi, o‘qituvchidan kerakli yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar olish;
- Turli bilim manbalaridan foydalangan holda muammoli vaziyatni hal etishning optimal variantini tanlash;
- Didaktik o‘yin ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘zaro yordam va o‘zaro nazorat vujudga kelishi lozim.

Xulosa qilib aytganda mikrobiologiya darslarida didaktik o‘yin texnologiyasini amaliyotda qo‘llash talabalarning mustaqil bilish faoliyatini va ijodiy ko‘nikma, malakalarini takomillashtirishda, kreativlik va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlarini beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J.O. Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
2. M.N. Ibodova “Biologiya o`qitish metodikasi” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik 2024 y Toshkent “Bookmany print “ - 2024 y
3. M.N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o`qitishning integrativ texnologiyalari va metodik ta`minoti KASB-HUNAR TA`LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma`rifiy jurnal 2024-yil, 7-son
4. M.N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini integrativ yondashuv asosida o`qitishning didaktik modeli O`zMU XABARLARI ВЕСТНИК НУУЗ АСТА NUUZ MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI 2024 y 1/8/1 B 104-105
5. M.N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o`qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishning metodik tizimi. Uzluksiz ta`lim Тошкент . 2023 y. № 6 Б- 126-129 bet
6. M. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o`qitishning interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
7. M. N. Ibodova Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
8. M. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in the educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.

## CHEKSIZ KICHIK VA CHEKSIZ KATTA MIQDORLAR

*Abirov Ruxshod Ashirovich*

*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti  
qo‘shidagi akademik litseyi*

**Annotatsiya:** Matematika va fizika fanlarida cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu tushunchalar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy qo‘llanmalarda ham keng tarqalgan. Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar, asosan, limitlar, integral va differensial hisoblashda, shuningdek, matematik analizda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar tushunchalari, ularning xususiyatlari, qo‘llanilishi va matematikada o‘rni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** cheksiz kichik miqdorlar, cheksiz katta miqdorlar, limitlar, integral, differensial hisoblash, funksiya, matematika.

**Аннотация:** Бесконечно малые и бесконечно большие величины играют важную роль в математике и физике. Эти концепции широко распространены не только в теории, но и в практических приложениях. Бесконечно малые и бесконечно большие величины, главным образом пределы, играют важную роль в интегральном и дифференциальном исчислении, а также в математическом анализе. В данной статье представлена информация о понятиях бесконечно малых и бесконечно больших величин, их свойствах, применении и месте в математике.

**Ключевые слова:** бесконечно малые величины, бесконечно большие величины, пределы, интеграл, дифференциальное исчисление, функция, математика.

**Abstract:** Infinitely small and infinitely large quantities play an important role in mathematics and physics. These concepts are widespread not only in theory, but also in practical applications. Infinitely small and infinitely large quantities, mainly limits, play an important role in integral and differential calculus, as well as in mathematical analysis. This article provides information about the concepts of infinitely small and infinitely large quantities, their properties, application, and place in mathematics.

**Key words:** infinitely small quantities, infinitely large quantities, limits, integral, differential calculus, function, mathematics.

### KIRISH

Cheksiz kichik miqdorlar, asosan, noldan kichik bo‘lgan, lekin noldan farqli bo‘lgan miqdorlardir. Ular matematikada limitlar yordamida aniqlanadi. Masalan, agar biror funksiya noldan kichik bo‘lsa va uning qiymati noldan yaqin bo‘lsa, bu funksiya

cheksiz kichik deb ataladi. Cheksiz kichik miqdorlar, asosan, analitik va differensial hisoblashda qo‘llaniladi. Ular matematik formulalarda, integrallarda va differensial tenglamalarda uchraydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Cheksiz kichik miqdorlarning xususiyatlari juda qiziqarli. Ular har qanday ijobiy sonlardan kichik bo‘lishi mumkin, lekin ularning o‘zaro taqqoslanishi qiyin. Masalan,  $a$  noldan kichik bo‘lgan har qanday ijobiy son bo‘lsa,  $b$  ham noldan kichik bo‘lishi mumkin. Ammo  $a$  va  $b$  ni taqqoslaganda, har doim biror biri ikkinchisidan kichik bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar cheksiz kichik miqdorlarning matematik tahlilda qo‘llanilishi uchun muhimdir. Cheksiz katta miqdorlar esa, aksincha, cheksiz katta qiymatga ega bo‘lgan, lekin har qanday cheklangan miqdorlar bilan taqqoslaganda ulardan katta bo‘lgan miqdorlardir. Cheksiz katta miqdorlar ham limitlar yordamida aniqlanadi. Agar biror funksiya cheksiz katta bo‘lsa, bu funksiya cheksiz katta deb ataladi. Cheksiz katta miqdorlar matematikada, asosan, limitlar, integral va differensial hisoblashda qo‘llaniladi. Cheksiz katta miqdorlarning xususiyatlari ham cheksiz kichik miqdorlar kabi qiziqarli. Ular har qanday ijobiy sonlardan katta bo‘lishi mumkin. Masalan, agar  $a$  cheksiz katta bo‘lsa,  $b$  ham cheksiz katta bo‘lishi mumkin. Ammo  $a$  va  $b$  ni taqqoslaganda, har doim biror biri ikkinchisidan katta bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar cheksiz katta miqdorlarning matematik tahlilda qo‘llanilishi uchun muhimdir.[1]

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar matematikada va fizika fanlarida keng qo‘llaniladi. Ular, asosan, limitlar, integral va differensial hisoblashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, integral hisoblashda cheksiz kichik miqdorlar yordamida maydonlarni hisoblash mumkin. Cheksiz katta miqdorlar esa, ko‘pincha, fizik jarayonlar va matematik modellarda uchraydi. Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar, shuningdek, matematik analizning asosiy tushunchalaridan biridir. Ular yordamida ko‘plab matematik formulalar va teoremlarning isbotlari amalga oshiriladi. [2]

Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar o‘rtasidagi munosabatlar ham matematik tahlilning muhim qismidir. Ular yordamida ko‘plab matematik muammolar hal etiladi. Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy qo‘llanmalarda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, fizikada cheksiz katta miqdorlar ko‘pincha kuchlar, energiya va boshqa fizik kattaliklar bilan bog‘liq. Cheksiz kichik miqdorlar esa, masalan, o‘lchovlar va aniqliklar bilan bog‘liq hisob-kitoblarda qo‘llaniladi. Shuningdek, iqtisodiyotda ham cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlarning o‘rni bor. Iqtisodiy modellarda cheksiz katta miqdorlar ko‘pincha resurslar va talablar bilan bog‘liq. [3]

Cheksiz kichik miqdorlar esa, masalan, narxlar va xarajatlar bilan bog‘liq hisob-kitoblarda qo‘llaniladi. Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar matematikada va fizika fanlarida muhim o‘rin tutadi. Ular limitlar, integral va differensial hisoblashda, shuningdek, matematik analizda keng qo‘llaniladi. Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar o‘rtasidagi munosabatlar matematik tahlilning muhim qismidir. Ularning amaliy qo‘llanilishi esa, iqtisodiyot, fizika va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalar matematik va ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy poydevor hisoblanadi va ularning o‘rganilishi davom etmoqda. [4]

### **XULOSA**

Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar haqida tushunchalarni chuqur o‘rganish, nafaqat matematik bilimlarni oshirish, balki bu bilimlarni amaliy hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Matematik tahlil va hisoblashlar orqali olingan natijalar, ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlarda qo‘llanilishi, bu tushunchalarning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar bilan bog‘liq bo‘lgan nazariyalar va formulalar, matematik bilimlarimizni kengaytirishga, yangi kashfiyotlar va innovatsiyalar yaratishga yordam beradi. Shu tariqa, cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar nafaqat matematikada, balki boshqa ko‘plab sohalarda ham muhim rol o‘ynaydi va ularning o‘rganilishi davom etmoqda. Ularning mohiyatini tushunish, ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullayev, A. (2020). "Matematika asoslari". Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
2. Murodov, I. (2019). "Matematik analiz". Tashkent: Fan.
3. Sultonov, B. (2021). "Differensial hisob va uning qo‘llanilishi". Tashkent: O‘zbekiston davlat universiteti.
4. Karimov, R. (2018). "Fizikada matematik modellar". Tashkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
5. Tashkent, M. (2022). "Iqtisodiy matematik modellar". Tashkent: Iqtisodiyot va sanoat vazirligi.
6. Qodirov, S. (2023). "Matematika va uning amaliyotdagi o‘rni". Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
7. Rahmonov, D. (2021). "Matematik tahlil va ko‘rinishlari". Tashkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi.

## MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Djurayeva Ra’no Kayumovna*

*Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti  
qoshidagi akademik litseyi*

**Annotatsiya:** Matematika fani ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Bu fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga imkon beradi. Shuning uchun, matematika o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning o‘z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal etish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Kalit so‘zlar:** matematika, interfaol metodlar, dras, ko‘nikmalar, savollar, motivatsiya, muammolar, jamoa, nazariy bilimlar.

**Аннотация:** Математика играет важную роль в образовательном процессе. Эта наука позволяет развивать не только теоретические знания, но и практические навыки. Поэтому использование интерактивных методов в обучении математике помогает сделать процесс обучения учащихся более эффективным и интересным. Интерактивные методы обеспечивают активное участие учащихся, развивают у них навыки выражения своих мыслей, решения задач и работы в команде.

**Ключевые слова:** математика, интерактивные методы, ДРА, умения, вопросы, мотивация, задачи, команда, теоретические знания.

**Abstract:** Mathematics plays an important role in the educational process. This science allows to develop not only theoretical knowledge, but also practical skills. Therefore, the use of interactive methods in teaching mathematics helps to make the learning process of students more effective and interesting. Interactive methods ensure the active participation of students, develop their skills of expressing their thoughts, solving problems and working with a team.

**Key words:** mathematics, interactive methods, dras, skills, questions, motivation, problems, team, theoretical knowledge.

### KIRISH

Matematika fani tarixan juda qadimdan rivojlangan. Qadimgi Misr va Mesopotamiya davrlarida matematik bilimlar amaliy ehtiyojlar uchun, masalan, yer o‘lchovlari va savdo-sotiqda qo‘llanilgan. Qadimgi yunonlar esa matematikani nazariy jihatdan rivojlantirib, geometriya va algebra asoslarini yaratdilar. Ularning

ishlanmalari bugungi kunda ham o‘qitiladi va qo‘llaniladi. Matematika nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. O‘quvchilar matematik muammolarni hal qilish jarayonida analitik fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Bu ko‘nikmalar nafaqat matematikada, balki boshqa fanlarda va hayotda ham zarurdir. Masalan, iqtisodiyot, fizika, muhandislik va kompyuter fanlarida matematik modellar va hisob-kitoblar keng qo‘llaniladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Matematika fani shuningdek, ijodkorlikni ham rivojlantiradi. Ko‘plab matematik muammolarni hal qilish jarayonida ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalar kashf etilishi talab etiladi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Matematikada yechim topish jarayoni ko‘pincha bir necha usul va yo‘llarni talab etadi, bu esa o‘quvchilarda muammolarni turli xil nuqtai nazardan ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi. Matematikaning hayotimizdagi ahamiyati juda katta. U har bir sohada, jumladan, iqtisodiyot, fan, texnologiya va san’atda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, iqtisodiy tahlil va rejalashtirish jarayonida matematik modellar va statistika asosiy vositalardan biridir. Texnologiya sohasida esa algoritmlar va hisoblash matematikasi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, san’atda ham geometrik shakllar va simmetriya matematik tushunchalar bilan bog‘liqdir. Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash muhimdir. Onlayn platformalar, interfaol dasturlar va multimedia vositalari darslarni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. O‘quvchilar matematik tushunchalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Interfaol metodlar o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar darsda faqat passiv tinglovchilar bo‘lish o‘rniga, o‘z fikrlarini bildirish, savollar berish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va dars jarayonini yanada jonli qiladi. O‘quvchilar o‘zaro fikr almashish orqali bir-biridan o‘rganadilar, bu esa bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar matematik tushunchalarni chuqurroq anglaydilar.[1]

Masalan, guruhli ishlar yoki muammoli vazifalar orqali o‘quvchilar matematik qonuniyatlarni o‘zlari kashf etadilar. Bu jarayonda o‘quvchilar faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirib qolmay, balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. O‘quvchilar o‘zlari hal qilgan masalalar orqali yangi bilimlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, interfaol metodlar o‘qituvchilarga darsni yanada samarali o‘tkazish imkonini beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash orqali darsning mazmunini yanada qiziqarli

va foydali qilishlari mumkin. Interfaol metodlar yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi.[2]

Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar o‘zaro raqobatlashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Dars jarayonida o‘quvchilar o‘zaro jamoa bo‘lib ishlash orqali bir-birlariga yordam beradilar, bu esa jamoaviy ruhni oshiradi. O‘quvchilar bir-biridan o‘rganish, fikr almashish va birgalikda yechim topish orqali o‘z bilimlarini kengaytiradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari ham rivojlanadi. O‘quvchilar muammolarni hal qilish jarayonida turli xil fikrlarni o‘rganadilar va o‘z fikrlarini asoslashga majbur bo‘ladilar. Bu esa ularning analitik fikrlash ko‘nikmalarini oshiradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalash va bahslashish orqali o‘z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Matematika fanida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z ishlarini baholash, xato va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish orqali o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtiradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatlarini oshiradi va ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Interfaol metodlar yordamida ta’lim jarayoni yanada rang-barang va qiziqarli bo‘ladi. O‘quvchilar darsda faqat matematik formulalar va qonuniyatlarni o‘rganish bilan cheklanmay, balki o‘zaro muloqot qilish, muhokama qilish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va dars jarayonini yanada samarali qiladi. [3]

Matematika fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchilar matematik bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtiradilar, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi. Interfaol metodlar yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar o‘zaro raqobatlashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.[4]

## XULOSA

Shunday qilib, matematika fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning o‘zaro muloqot qilish,

fikr almashish va jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchilar matematik bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtiradilar, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abduqodirov, S. (2020). "Matematika ta'limida interfaol metodlar." Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Qodirov, A. (2019). "Matematika o'qitishda innovatsion metodlar." Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Xudoyberganova, N. (2021). "Interfaol o'qitish metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni." Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
4. Rahimov, R. (2022). "Matematika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
5. Karimov, J. (2023). "O'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanish." Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
6. Sul'tonov, M. (2022). "Matematika o'qitish metodikasi." Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
7. Mirzaeva, D. (2020). "Interfaol o'qitish va uning samaradorligi." Namangan: Namangan Davlat Universiteti.



**O‘ZBEK TILIGA O‘ZGA TILLARDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR  
VA ULARNING TARIXI**

**LOANWORDS WHICH BORROWED FROM OTHER LANGUAGES  
INTO THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR HISTORY**

*Islomova Zilola Komiljon qizi*

*Zilolaislomova03@gmail.com*

*0009-0008-5994-7211*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek tiliga o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlarning tarixi, qo‘llanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. O‘zbek tili ko‘plab tarixiy va madaniy aloqalar tufayli o‘z so‘z boyligini turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar orqali kengaytirgan. Arabcha, forsha, ruscha so‘zlar shular jumlasidandir. Bu kabi boshqa tillardan kirgan so‘zlar o‘zbek tilning turli sohalarida, kundalik hayot, ilm-fan, texnika va madaniyatda keng qo‘llaniladi. Maqolada o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek tiliga moslashish jarayonlari, ularning tarixi va lingvistik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Annotation:** This article analyses the history, usage, and development of loanwords in the Uzbek language. Uzbek language has expanded its vocabulary with words which borrowed from various languages because of numerous historical and cultural connections. There are Arabic, Persian, and Russian words. Such loanwords are widely used in various fields of the Uzbek language, including daily life, science, technology, and culture. The article discusses the processes of adaptation of loanwords into the Uzbek language, their history and linguistic characteristics.

**Аннотация:** Эта статья анализирует историю, использование и развитие заимствованных слов в узбекском языке. Узбекский язык расширил свой словарный запас за счет слов, заимствованных из различных языков, благодаря многочисленным историческим и культурным связям. Сюда входят арабские, персидские и русские слова. Такие заимствованные слова широко используются в различных областях узбекского языка, включая повседневную жизнь, науку, технику и культуру. В статье рассматриваются процессы адаптации заимствованных слов в узбекский язык, их история и лингвистические характеристики.

**Kalit so‘zlar:** *O‘zbek tili, o‘zlashgan so‘zlar, arabcha so‘zlar, forsha so‘zlar, ruscha so‘zlar, lingvistika, til rivojlanishi, semantik o‘zgarish, madaniy aloqalar, introlingvistik omil, ekstrolingvistik omil.*

O‘zbek tili o‘zining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug‘at tarkibini o‘z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko‘ra, o‘z qatlam negizlari asosida yangi so‘zlar yasaldi, mavjud so‘z ma‘nolari kengaytirildi, ba‘zi so‘zlarga qo‘shimcha vazifalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalarida turli davrlarda, ehtiyojga ko‘ra, so‘zlar qabul qilindi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o‘z ichki manbalarigagina tayanib ish ko‘rmaganidek, o‘zbek tili uchun ham faqat o‘z so‘zlari, o‘z qatlam boyligi va imkoniyatlarigagina kifoya qilmaydi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o‘ynaydi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o‘zaro ma‘lum munosabatda bo‘lishi qonuniy holdir. Bunday munosabat aloqada bo‘lgan tillar rivojida ayniqsa uning lug‘at tarkibida ma‘lum izlarni qoldirishi mumkin. Shu sababli ham dunyodagi barcha tillar lug‘at tarkibidagi, jumladan o‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlar uchun umumiy bo‘lgan ikki omil kuzatiladi:

1. Introlingvistik omil.
2. Ekstrolingvistik omil.

Introlingvistik (lisoniy) omillar<sup>1</sup>. Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug‘at boyligi, morfema tiplari, so‘z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlarni natijasida so‘zlarning rivojlanishi kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, mana shu omillarga tayanadi. [Jamolxonov 2001,7]

Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar<sup>2</sup>. Bular tildan tashqarida mavjud bo‘lgan faktorlar bo‘lib: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma‘rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlarnind so‘zlarga ta‘siri hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiysiyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy va ma‘naviy hayotida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e‘tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o‘zbek tili leksikasiga ham ta‘sir o‘tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykom, obkom, sovxoz, oblast kabi so‘zlar) iste‘moldan chiqib, o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy qatlamiga o‘tib qoldi, ularning

---

<sup>1</sup> Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 7-bet

<sup>2</sup> Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 2001, 7-bet

o‘rnida hozirgi mustaqil O‘zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so‘z va atamalar (kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes kabilar) paydo bo‘ldi, hokim, hokimiyat, viloyat, tuman kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma‘no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so‘zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o‘tib qoldi. [Jamolxonov 2001,7]

Hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor: a) eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr); b) qadimgi turkiy til (VII—XI asrlar); d) eski turkiy til (XI—XIII asrlar); e) eski o'zbek adabiy tili (XIV—XIX asrlar); 0 yangi o'zbek adabiy tili (XIX asming oxiri - XX asrning boshlari). O'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asming 30- yillarida hozirgi o'zbek adabiy tili shakliga kirgan<sup>3</sup>. [Abdurahmonov G \, Shukurov Sh, 1973,17-26]

O‘zbek xalqi, eng qadimgi turkiy urug‘ va qabilalardan kelib chiqqan, shu bois uning tili ham shu urug‘ va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo‘g‘ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo‘shnichilik munosabatlari ham o‘zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o‘zbek-arab, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo‘lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, hozirgi o‘zbek tilining lug‘at boyligida ikkita yirik qatlam — o‘z va o‘zlashgan qatlamlar borligi ma‘lum bo‘ladi.

O‘z qatlam<sup>4</sup> - o'zbek tili leksikasining umumturkiy (*o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy birliklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan*) so'zlar va sof o'zbek so'zlaridan iborat qismlari. [Jamolxonov 2001,183]

Masalan: *bosh* (o‘zb.) - *bas* (qoz., qoraq.) - *bash* (qirg‘., turkm.); (o‘zb., qoz., qirg‘.) - (turkm., ozarb., gagauz.); *tog* (o‘zb.) - *too* (qirg‘.) - *tav, tau* (qoraq., qoz.) - *dag* (turkm., ozarb).

O‘zlashgan qatlam<sup>5</sup>- bu o‘zbek tili leksikasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalardan iborat qismidir. Masalan: maktab, oila (ar.), daraxt, gul (f-t.), axta, bahodir (mo'g'.), afandi (turk.), ravshan (sug'd.), traktor, avtobus (r-b.) va b.lar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. [NamDU-ARM-5382, 2024]

<sup>3</sup> Abdurahmonov G \, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: « O‘qituvchi». 1973, 17-26-b.

<sup>4</sup> Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, 2001,183-bet.

<sup>5</sup> [https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5382-Hozirgi\\_Ozbek\\_adabiy\\_tili.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5382-Hozirgi_Ozbek_adabiy_tili.pdf)

Arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar. Bunday so‘zlarning o‘zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o‘ynagan:

- a) Arablar istilosi;
- b) Islom dinining keng tarqalishi;
- c) Arab yozuvining qo‘llana boshlanganligi;
- d) Madrasalarda arab tilining o‘qitilishi; 0 turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi;
- e) Olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va b.lar.<sup>6</sup>

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir:

Otlar - *abo* [choponga o‘xshash jun kiyim] Avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng, lekin yengi kalta erkaklar ust kiyimi. *Shayboniyxon boshiga qizil bo‘rk ustidan salla o‘ragan, ko‘k movutdan abo kiygan. P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”.* Uning chakmonidan o‘tgan yomg‘ir kalta yenglik abosini nam qilgan edi. P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”. [O‘zb.I.L.”A”.27]

Sifatlar - *azim* [ulug‘, buyuk, katta]

Ko‘rinish, tuzilish e‘tibori bilan g‘oyat katta, ulkan. *Azim terak. Azim tog‘lar. Azim daryo. Shahri azim. Eski Jo‘vada azim bir jamoa yig‘ib, Azizbek bilan bo‘lgan majorosini so‘zladi. A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”.Gunohi azim (azim gunoh)-katta gunoh. Behuda qon to‘kmoq, yutni parchalamoqdan azim gunoh yo‘q. Oybek, “Navoiy”. ...olimlarni xaqorat qilish va azoblash kechirib bo‘lmaydigan gunohi azim sifatida ta‘riflangan. E. Yusupov, “Istiqlol yo‘lida”* [O‘zb.I.L.”A”.49]

Bog‘lovchilar - *vaholonki* [xolbuki] Teng huquqli yoki zid ma‘noli gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladi; xolbuki. *Boybuchchadan gumonim yo‘q deyapsiz, vaholangki, sizni yo‘ldan urgan o‘sha. S. Yunusov, “Kutilmagan xazina”.*

Undovlar - *ajabo* [taajjub,qiziq] *Ajabo, bu qanday gap!* [O‘zb.I.L.”A”.43]

Modal so‘zlar - *albatta* [shubxasi]

1. Fikrning yoki ish-harakatning qat‘iyligini, murakkabligini, shubxasiz ekanligini bildiradi. *Qori o‘rikdan ikkitasini Sodiqjonga uzatdi:-“Zap o‘rik ekan-da, kanal bitib, suv serob bo‘lib, bog‘-rog‘lar qilganimizda, albatta, shuning danagidan ekamiz”.* A.Qahhor, “O‘shchinor chiroqlar”.
2. Kirish so‘z vazifasida. Shunday mazmunli munosabatni bildiradi; shubxasiz, turgan gap, tabiiy, bo‘lmasa-chi. *Men, albatta, ko‘zingizning oq-u qorasi bo‘lgan yolg‘iz qizingizni yaramas, bo‘lmag‘ur kishiga tutib berarsiz, deb bilmayman. A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”.* [O‘zb.I.L.”A”.68]

<sup>6</sup> <https://www.scribd.com/presentation/797492486/OZLASJGAN-SO-ZLAR>

Yuklamalar - *xuddi* [o‘ziniki] Aynan, aniq. *Inobatning xuddi o‘ziga o‘xshagan nozikkina, qora qosh, qora ko‘z bir singlisi bore di. O. Yoqubov, “Er boshiga ish tushsa”. Bir oydan so‘ng xuddi shu katta bog‘da dang‘illama to‘y bo‘ldi. O‘. Hoshimov, “Qalbingga quloq sol”. Xuddi shu payt eshik g‘iyqillab ochildi. O‘. Hoshimov, “Qalbingga quloq sol”. [O‘zb.I.L.”X”.419-420]*

Ko‘makchilar – *binoan* [...ga asosan, ...ga ko‘ra] Nimagadir amal qilgan, asoslangan holda; muvofiq, ko‘ra. *Qulluq, chaqirganingizga binoan xizmatigizga keldik, nima deysiz. “Luqmoni Hakim”. Mazaxo‘raklarning buyurmasiga binoan, ofitsiant ustritsani likopchaga solib olib keladi. “Saodat” [O‘zb.I.L.”B”.266]*ham o‘zlashgan.

Fors-tojik tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar. Bu kabi so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor:

- a) O‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy muhitda yashab kelayotganligi;
- b) O‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;
- c) Tojik va fors tillarida ijod qilish an‘analarining uzoq yillar davom etganligi;
- d) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi;
- e) Adabiyot, san‘at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar.<sup>7</sup>

O‘zbek tilida tojik-fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar orasida:

Otlar- “*sartarosh*”

[soch-sokol oluvchi usta.]

-“*Xudoga shukur, mana, Mullajon sartarosh bo‘lib, kamlilik ko‘rayotgani yo‘q,*” -dedi *kampir Shodiga. E. Raimov, Ajab qishloq*

Yigit oynaga boqib, mo‘ylovini chimirib, sartaroshga rahmat aytdi. *Oybek, “Tanlangan asarlar”.*

*Hunarmand* [san‘at arbob; mohir, yuksak mahoratli; iste‘dodli, qobilyatli]

1. Uyida yoki o‘z do‘konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi kasb-hunar egasi. *Davr taqazosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslasha boshladi. K. Yashin, “Hamza”*
2. O‘z kasbining mohir ustasi. *...bu yigitning kelishgan va harakatchan qomati odamlarning ko‘z oldiga kelib turadi. – “Ko‘p hunarmand yigit ekan, azamat!” -deyishadi. P. Tursun “O‘qituvchi” [O‘zb.I.L.”H”.562]*

Sifatlar: *baravar* [teng, bir xil; teng, qiymatli]-o‘lchami, soni, katta-kichikligi, hajmi, harakati jihatdan bir xil, teng. *Bo‘yi baravar devor. Baravar hajmli shishalar. Yoshi*

<sup>7</sup> <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/download/10990/7884>

*baravar bolalar. Baravar vaqt oraliqlar. Bolaga maktab ham oila ham baravar tarbiya berishi kerak. Gazetadan.*

*Anvar har kim uchun sevimli va xushmuomalasi barchaga baravar edi. Abdulla Qodiriy, “Mehrobdan chayon”.*

*Ikkala ot bir qiyomda, baravar qadam tashlab borar edi. A. Qahhor. “Asarlar”.*

**Baravar kelmoq**-turli ko‘rsatkich va belgilarga ko‘ra baravar chiqmoq; teng kelmoq. *O‘zing bilasan qachon qarama katta-kichikka baravar, hamisha kambag‘allar foydasini ko‘zlaydi. X.Shams. “Dushman”. [O‘zb.I.L.”B”.161-162]*

Ravishlar: *astoydil* [yurakning chuqur joyidan]

1. Chin ko‘ngildan, sidqidil bilan. *U [Zebo] Elmurodni astoydil sevib qolgan edi. Shuhrat, “Shinelli yillar”. Bekor qilayotirsiz og‘a...men sizga astoydil xizmat qilmoqchi edim. S. Siyoyev, “Avaz”.*
2. Jiddiy ravishda; rostakamiga. *Safar akaning astoydil achchilanganini segan imom o‘rtaga tushdi. A. Qodiriy, “Mehrobdan chayon”. Astoydil kuyib gapirayotgan mehmon, Hakimjonning ko‘zi uyquga ketgandan keyingina to‘xtadi. “Sharq yulduzi”.*
3. Halollik bilan, vijdonan. *Hamma kecha demay, kunduz demay, astoydil ishlayapti. J. Sharipov, “Saodat”. [O‘zb.I.L.”A”.111]*

Undovlar: *balli* [ha, albatta, to‘g‘ri]

1.Ma‘qullash, tasdiqlash, maqtov, taxsin ma‘nolarini ifodalaydi [Joyni] *Oochlik yillari solganmiz. -Balli. A. Qodiriy, “O‘tgan kunlar”. “Balli, ona qizim”,- dedi Melivoy aka zavqlanib. S. Ahmad, “Ufq”. Izatulla aka bolaning boshini chipor shapkachasi ustidan silarkan: “Balli” deb qo‘ydi. Gazetadan. Uning fikrini ma‘qullovchi ovozlar eshitildi: - “Balli! Otangizga rahmat”. P. Tursin, “O‘qituvchi”.*

2.Cho‘zib talaffuz qilinganida norozilik, kesatiq ma‘nolarini ifodalaydi. –“Ko‘chada sen bilan yetaklashib yuradigan xotinga balli-ey!”-dedi Zumrad. S. Siyoyev, “Otlq ayol”. [O‘zb.I.L.”B”.150]

Yuklamalar: *xo‘sh*

1. So‘roq gap oldidan kelib, “ayting-chi”, “javob bering-chi”, “tushuntirib bering-chi” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. *Xo‘sh, Sodiq polvon, ishlar qanaqa, Toshkentda nima gaplar bor? A.Qodiriy, “O‘tgan kunlar”.*
2. Qistash ma‘nosini ifodalaydi. –“*Xo‘sh, gapiringlar*”,- dedi Bo‘taboy. *A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlar”.*
3. Nutq jarayonida qo‘llaniladi. *Xo‘sh desangiz, Bog‘dod shahrida Abutanbal degan bir yalqov yigit o‘z onasi bilan Yashar ekan. G‘.G‘ulom, “Tirilgan murda”. [O‘zb.I.L.”X”.438]*

Modal so‘zlar: *binobarin* [shunga ko‘ra, shunga qarab] Shunga ko‘ra, shu sababli, demak. *Nazarida bu muhabbat hech kimnikiga o‘xshamas, binobarin, hech kim uni to‘la.. tasavvur etolmas edi. Shuhrat, “Shinelli yillar”. Binobarin, atmosferani pokiza*

tutmoq uchun barcha davlatlar hamjihat ish olib borishlari kerak. “Fan va turmush” kabilar uchraydi. [O‘zb.I.L.”B”.266]

Ruscha-baynalmilal so‘zlar<sup>8</sup>[Tavaldiyeva,20024] – o‘zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan leksemalar:

*Jurnal* [gazeta, kundalik daftar]

1. Kitobcha yoki majmua shaklida belgili vaqtda chiqib turadigan belgili nashr. *Oylik jurnal. Jurnal ishiga obdon berilib ketdim. M.Jo‘ra, “Noshirnoma”. Stol ustida yangi gazeta, jurnallar. Sh. Rashidov, “G‘oliblar”*
2. Kundalik ish, voqea, hodisa va sh.k yozib boriladigan qayd daftari. *Kirgan chiqqan xatlar jurnali. O‘qituvchilar sinf jurnallarini ko‘tarishib, sinf-sinfga tarqab ketishdi. S. Zunnunova, “Yangi director”.*[O‘zb.I.L.”J”.114]

*Radioaktiv* [radio- lot ”radiare” nur chiqarmoq+ active- lot “activus” faol, harakatchan]

1. Radioaktivlikka oid. *Radioaktiv parchalanish. Bu ulkan apparat... radioaktiv parchalanish maxsulotlari hosil bo‘lishini o‘rganishda, hatto jismoniy ishlarni tekshirishda katta yordam berayotir. “Fan va turmush”.*
2. Radioaktiv xususiyatga ega bo‘lgan. *Radioaktiv izotoplar. Radioaktiv rudalar. Radioaktiv moddalar kontrabandasi bilan bog‘liq mazkur voqea yuzasidan hozir tekshiruv olib borilmoqda. Gazetadan. Fan va texnikada ham radioaktiv, ham turg‘un izotoplardan turli maqsadlarda keng foydalaniladi. “Fan va turmush”.* [O‘zb.I.L.”R”. 338]

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi arab, fors-tojik va rus tillaridan kirib kelgan leksemalar ya’ni o‘zlashgan so‘zlar, tilning ichki lingvistik xususiyatlari natijasida turli o‘zgarishga uchragan birliklar orqali boyigan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu jarayon o‘zbek tilining tarixiy ildizlari, uning ichki va tashqi omillarga moslashuvchanligi, shuningdek, madaniy hamkorlik va o‘zaro ta’sirlar orqali amalga oshgan. Shu sababli, o‘zlashgan so‘zlar hamda ularning tarixini o‘rganish, bu kabi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish tilning kelgusidagi rivoji uchun muhim jihat hisoblanadi.

---

<sup>8</sup> [https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Ozbek\\_tili\\_Tavaldiyeva.pdf](https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Ozbek_tili_Tavaldiyeva.pdf)

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamolxonov. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” ,2001
2. Abdurahmonov G \, Shukurov Sh. O ‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. - T.: « O ‘qituvchi». 1973, 17 -26 -b.
3. Adabiyotshunoslik atamalarining izohliso’zligi F.Salaev G.Qurboniyozov Toshkent “Yangi asr avlodi ” – 2010
4. O‘zbek tili leksikologiyasi (jamoa). – Toshkent, «Fan», 1981.
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi,1975.
6. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunuso., Abuzalova M.
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2010
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati “A”,”B”,”X”,”V”,”H” bo‘limlar. [”A”.27.49.43.68.111],[O‘zb.I.L.”X”.419-420.438], [O‘zb.I.L.”B”.266.161-162.150.266],[O‘zb.I.L.”J”.114], [O‘zb.I.L.”H”.562], [O‘zb.I.L.”R”. 338]
- 10.[https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5382-Hozirgi\\_Ozbek\\_adabiy\\_tili.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/11/NamDU-ARM-5382-Hozirgi_Ozbek_adabiy_tili.pdf)
- 11.<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tili-leksikasining-tarixiy-bosqichlari>.
- 12.[https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Ozbek\\_tili\\_Tavaldiyeva.pdf](https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Ozbek_tili_Tavaldiyeva.pdf)
- 13.<https://www.scribd.com/presentation/797492486/OZLASJGAN-SO-ZLAR>
- 14.<https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/download/10990/7884>



## STRUCTURING OPENINGS AND CLOSINGS IN THE LITERARY TEXT

*Nurmetova Mohimjon Ortiq qizi*

*UzSWLU, teacher*

[nurmetova.mohimjon@gmail.com](mailto:nurmetova.mohimjon@gmail.com)

### Abstract

This study investigates the structural and thematic significance of openings and closings in literary texts, focusing on their role in narrative coherence, reader engagement, and thematic resonance. By analyzing 20 literary works from various genres and periods, the study identifies key strategies employed by authors to craft compelling openings and impactful closings. Findings suggest that openings introduce thematic frameworks and engage readers, while closings ensure resolution or provoke reflection. This research offers insights into how these elements enhance literary value and reader experience.

**Key words:** structural analysis, ambiguity, textual analysis, circular storytelling, thematic establishment, narrative coherence.

### Introduction

The opening and closing of a literary text are pivotal in shaping its overall impact. Openings introduce readers to the world of the narrative, setting the stage for its themes, characters, and conflicts. Closings, on the other hand, encapsulate the resolution or ambiguity of the story, leaving readers with a lasting impression. These structural elements serve as bookends to the narrative, guiding the reader's journey from beginning to end.

Openings establish a text's tone and invite readers into its world. For instance, George Orwell's 1984 begins with the line, "It was a bright cold day in April, and the clocks were striking thirteen," which immediately immerses readers in a dystopian setting. The first impression created by an opening often determines the reader's willingness to engage with the text.

Closings provide narrative and emotional resolution. A well-crafted closing ties together thematic elements, as seen in Jane Austen's *Pride and Prejudice*, where character arcs and romantic conflicts reach a satisfying conclusion. Conversely, some texts, such as J.D. Salinger's *The Catcher in the Rye*, use ambiguity to reflect complex themes, leaving interpretation open to the reader.

This study aims to analyze how authors structure openings and closings to enhance narrative coherence and reader engagement. It seeks to address the following questions:

1. What techniques are employed in crafting openings and closings?
2. How do structural choices affect reader interpretation?
3. How do these elements vary across genres and literary traditions?

### Methods

Twenty literary works were selected, encompassing a variety of genres, historical periods, and cultural contexts. These include:

- Classics: Jane Eyre by Charlotte Brontë, Pride and Prejudice by Jane Austen.
- Modernist Works: The Great Gatsby by F. Scott Fitzgerald, Heart of Darkness by Joseph Conrad.
- Contemporary Fiction: The Road by Cormac McCarthy, The Kite Runner by Khaled Hosseini.
- Global Literature: Things Fall Apart by Chinua Achebe, One Hundred Years of Solitude by Gabriel García Márquez.

The analysis focused on:

1. Openings: Techniques such as foreshadowing, thematic hints, and character introduction.
2. Closings: Techniques including resolution, ambiguity, and cyclical structures.
3. Reader Responses: How readers perceive and interpret the impact of these structural elements.

### **Results**

One of the most effective methods is the use of immediate action, as demonstrated in George Orwell’s 1984. The novel begins with the simple yet striking description, “It was a bright cold day in April, and the clocks were striking thirteen.” This seemingly mundane line, combined with the strange detail of the clock striking thirteen, immediately sets an unsettling tone, preparing the reader for the dystopian world that Orwell has meticulously crafted. The choice to introduce action in such a direct and disturbing manner pulls the reader into the narrative instantly, evoking a sense of discomfort that echoes throughout the novel. This technique is particularly impactful as it establishes the oppressive and unnatural environment of the society in which the story takes place, making the reader question the very fabric of the world they are entering.

Another technique commonly used in openings is atmospheric description, which can be seen in Mary Shelley’s Frankenstein. The novel begins with a series of letters written by Robert Walton, in which he describes the setting and introduces the theme of ambition. Shelley’s rich and vivid imagery sets a Gothic mood from the outset, preparing the reader for the darker and more sinister events to come. Through descriptions of icy, desolate landscapes, Shelley conjures an atmosphere of isolation and foreboding. This detailed world-building is essential in creating the tone of the novel, suggesting the eerie and tragic nature of the story while also foreshadowing the central themes of isolation, unchecked ambition, and the pursuit of knowledge at all costs. By establishing such a strong sense of place and mood, the opening draws the reader into a world that is as much about atmosphere as it is about plot.

In contrast to action-driven or atmospheric openings, some novels begin by focusing on the inner world of the protagonist, drawing the reader into the emotional and psychological landscape of the character. Charlotte Brontë’s Jane Eyre employs this technique, introducing the protagonist’s inner thoughts and emotional turmoil from the very first lines. Through Jane’s personal reflections and the harsh conditions of her childhood, the reader gains immediate access to her internal world, fostering a deep emotional connection with her character. This character-centric opening establishes not only the tone of the narrative but also sets the stage for the themes of self-discovery,

independence, and social criticism that will unfold throughout the novel. By starting with an intimate connection to the protagonist, Brontë ensures that the reader is immediately invested in Jane’s journey, both emotionally and morally.

### **Discussion**

Openings act as the narrative’s foundation, establishing expectations for the story’s trajectory. In Fitzgerald’s *The Great Gatsby*, the reflective opening introduces themes of ambition and disillusionment, setting the tone for the novel’s exploration of the American Dream. Similarly, Achebe’s *Things Fall Apart* uses its opening to depict traditional Igbo society, foreshadowing the cultural upheaval to come.

Closings shape the narrative’s final impact. McCarthy’s *The Road* concludes with a bittersweet reflection on hope and survival, leaving readers emotionally moved. Conversely, Conrad’s *Heart of Darkness* ends with moral ambiguity, compelling readers to grapple with its critique of imperialism. The closing encapsulates the story’s themes, ensuring its resonance long after the last page.

#### **Interplay Between Openings and Closings**

Thematic and structural links between openings and closings enhance a text’s coherence. For instance, the cyclical structure of Márquez’s *One Hundred Years of Solitude* ties the ending to the opening, emphasizing the inevitability of fate and repetition. Such interplay creates a unified narrative experience, enriching the reader’s understanding of the text.

For writers, the techniques used in structuring openings and closings have profound implications on their storytelling. Crafting engaging openings is essential for capturing the reader’s attention right from the start. An effective opening does more than just introduce the characters or setting; it sparks curiosity, establishes tone, and hints at the thematic direction of the narrative. Writers who succeed in creating a strong first impression are more likely to draw readers into the story, making them invested in the journey that will unfold. Whether it’s through immediate action, vivid description, or establishing an intimate connection with the protagonist, the opening sets the stage for the narrative’s emotional and intellectual resonance.

Equally important is the closing, as it leaves the reader with the final impression of the story. Thoughtful closings provide resolution and emotional satisfaction, ensuring that the narrative arc reaches a satisfying conclusion. However, even when an ending is left open-ended or ambiguous, it can leave a profound impact, provoking thought and encouraging further interpretation. Writers who are mindful of their closing’s emotional and thematic resonance can ensure that the text lingers in the reader’s mind long after the final page is turned. Thus, whether offering closure or ambiguity, a carefully crafted closing can elevate the narrative, offering depth and layers that enrich the reader’s experience.

For educators, teaching students the importance of openings and closings can significantly deepen their appreciation of literary structure and narrative techniques. When students understand the purpose and strategies behind these structural elements, they gain insight into how writers shape their texts to guide the reader’s emotional and intellectual responses. Educators can encourage students to analyze openings and

closings as part of a broader examination of the narrative as a whole, showing how these elements contribute to thematic development and character arcs.

In addition, comparative analysis across genres offers students a valuable opportunity to see how different narrative techniques function in varying contexts. By comparing the openings and closings of works from different genres—such as realism, modernism, or magical realism—students can appreciate the diversity of approaches available to writers. For example, the cyclical ending of Márquez’s *One Hundred Years of Solitude* differs dramatically from the clear resolution of Austen’s *Pride and Prejudice*. This comparison helps students recognize how structure influences tone, meaning, and reader engagement, and fosters a broader understanding of literary techniques.

For readers, an awareness of the structural elements of openings and closings enhances their overall reading experience. Recognizing the techniques used by writers to frame a narrative helps readers engage more deeply with the text. When readers are conscious of how openings establish themes, tone, or conflict, they are better able to appreciate the writer’s craft and understand the narrative’s underlying messages. Furthermore, when readers understand how closings provide resolution or invite reflection, they can more fully appreciate the emotional and intellectual impact of the text.

Reflecting on how the opening and closing interact within a story can also foster a deeper engagement with the text. Many works use the opening and closing to create a cyclical or thematic connection, such as the parallels between the beginning and end of *One Hundred Years of Solitude*. When readers recognize this interplay, they gain a more comprehensive understanding of the story’s deeper meanings and thematic resonances. Engaging with these elements allows readers not only to follow the narrative but also to think critically about the larger themes and questions the author is addressing.

### **Conclusion**

Openings and closings are integral to the success of literary texts, serving as the bookends of a narrative that shape the reader’s journey and overall perception of the story. By setting the tone, establishing themes, and presenting key expectations, openings create the foundation upon which the narrative unfolds, drawing readers into the world of the text. Meanwhile, closings offer the culmination of this journey, providing resolution, evoking emotional impact, or challenging readers with ambiguity. These two elements work in tandem to guide the reader’s experience, ensuring that the story resonates long after it has been read.

This study underscores the significance of these structural elements, demonstrating their role in fostering narrative coherence and enhancing thematic exploration. The balance between engaging openings and thought-provoking or satisfying closings allows for a richer and more immersive literary experience. Writers who master these techniques can effectively capture the reader’s attention and leave a lasting impression, whether through the cyclical closure of texts like Márquez’s *One Hundred Years of Solitude* or the open-ended ambiguity of Salinger’s *The Catcher in the Rye*.

Future research could expand on these findings by exploring cultural and genre-based variations in structuring openings and closings, particularly in non-Western literary traditions or experimental works. Additionally, investigating the psychological effects of these elements on reader engagement and interpretation could provide valuable insights for both writers and literary scholars. Ultimately, understanding the art and impact of openings and closings is vital not only for analyzing existing works but also for crafting compelling narratives that stand the test of time.

### REFERENCES

1. Culler, J. (2002). *The Literary in Theory*. Routledge.
2. Brontë, C. (1847). *Jane Eyre*.
3. Genette, G. (1980). *Narrative Discourse: An Essay in Method* (J. Lewin, Trans.). Cornell University Press
4. Todorov, T. (1969). *Grammatology of the Opening and Closing: A Structuralist Approach to Narrative Beginnings and Endings*. *Poetics Today*, 1(2), 43-64.
5. Brooks, P. (1984). *Reading for the Plot: Design and Intention in Narrative*. Harvard University Press.
6. Eagleton, T. (2008). *Literary Theory: An Introduction* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
7. Waugh, P. (2006). *Literary Theory and Criticism: An Oxford Guide*. Oxford University Press.
8. Smith, A. (2005). *The Structure of the Novel*. University of Toronto Press.
9. Johnson, M. (1989). *Narrative and Identity: Studies in Autobiography, Self, and Culture*.

## ANQARA JANGI TARIXI VA OQIBATLARI

*Oriental Universiteti o‘qituvchisi*  
***Qo‘chqarov Temirbek Baxromjon o‘g‘li***  
*Oriental Universiteti talabasi*  
***Erkinova Asaloy Muzaffar qizi***

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Amir Temurning yetti yillik urushlarining boshlanishi, Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim bilan yuzaga kelgan kelishmovchiliklar hamda 1402-yilda sodir bo‘lgan Anqara jangining tafsilotlari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Boyazid Yildirim, Usmonli turklar, Hindiston, Misr, Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, Sharafiddin Ali Yazdiy, Kichik Osiyo.

### АННОТАЦИЯ

В статье содержится информация о начале Семилетних войн Амира Темура, его конфликтах с османским султаном Баязидом Йылдырымом и подробностях битвы при Анкаре в 1402 году.

**Ключевые слова:** Амир Темура, Баязид Йылдырым, турки-османы, Индия, Египет, Низамуддин Шами, Зафарнама, Шарафиддин Али Язди, Малая Азия.

### ANNOTATION

This article provides information about the beginning of Amir Temur's Seven Years' War, the conflicts with the Ottoman Sultan Bayezid Yildirim, and the details of the Battle of Ankara in 1402.

**Keywords:** Amir Temur, Bayezid Yildirim, Ottoman Turks, India, Egypt, Nizamuddin Shami, Zafarnama, Sharafiddin Ali Yazdi, Asia Minor.

### KIRISH

XIV asr oxirida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyatda Osiyo, qisman Afrika va Yevropa hududida Usmonli Turkular sultonligi, Amir Temur saltanati, Misr mamluklar saltanati va Oltin O‘rda kabi yirik davlatlar manfaatlari o‘zaro to‘qnashdi. 1395-1396-yillarda Oltin O‘rdaning uzil-kesil tor-mor keltirilishi natijasida Amir Temur G‘arbiy yo‘nalishda tashqi siyosiy faollikni bemaolol oshira olish imkoniga ega bo‘ldi. Xuddi shu vaqtda ya‘ni 1399-yili Misr, Mo‘g‘uliston va Xitoy hukmdorlarining vafot etishi natijasida mazkur hududlarda boshlangan siyosiy beqarorlik Amir Temurga yanada qulaylik tug‘dirdi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tanlangan mavzuni o‘rganishda qator tarixiy manbalar, shu jumladan, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur: Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”, “Temur tuzuklari” kabi manbalar, Turg‘un Fayziyevning “Temuriylar shajarasi” asarlari doirasida atroflicha o‘rganilgan.

Maqolada davriylik, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma‘lumotlarni tizimlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amir Temur Hindiston safaridan Samarqandga qaytib kelgach, g‘arbga tomon harbiy yurish oldidan puxta tayyorgarlik ko‘rishni sarkardalariga buyirganligi haqida yozma manbalar ma‘lumot beradi. Shuningdek, Amir Temur har bir uzoq safarli yurishlaridan avval askarlarning maoshini tarqatishni odat qilganidek, Yaqin Sharq tomon yurishlarini davomida ham shu ishni amalga oshirib, askarlar ruhiyatini ko‘tardi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarining 86-bobida Kichik Osiyoda davlat qurgan Usmonlilarning sultoni Boyazid Yildirimdan dastlabki elchilarni Amir Temur huzuriga kelganligi ba‘yon atilgan.<sup>1</sup> Ikki buyuk turk hokimi o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik borgan sayin kuchayib boradi. Amir Temur Boyazid (1389–1403) bilan hal qiluvchi jangga shoshilmaydi, iloji boricha bu urushning oldini olishga, uni tinch, siyosiy vositalar bilan hal qilishga urinadi. Chunki o‘zini islom himoyachisi hisoblagan buyuk Sohibqiron Boyazidning xristianlar bilan jang qilayotganligini yaxshi bilar edi. Ammo Temurning bu intilishlarini o‘ziga haddan tashqari bino qo‘ygan va o‘z qudratini yuqori baholagan Sulton Boyazid nazar-pisand qilmaydi. Sohibqironni kamsitib haqoratlaydi va ikki o‘rtada boshlangan urushga asosiy sabab bo‘ladi. Buni tarixiy voqealar ochiq-oydin isbotlaydi.<sup>2</sup> Buni tarixiy voqealar ochiq-oydin isbotlaydi. Qora qyunli turkman qabilasining hokimi Qora Yusuf 1388–1399-yillarda Armaniston, Iroq va Ozarbayjon sarhadlarida bir necha marta Temur lashkarlariga qarshi janglar olib borgan. Unga Ahmad Jaloyir ittifoqdosh bo‘lgan. Qora Yusuf bilan Ahmad Jaloyirni Sulton Boyazid o‘z himoyasiga oladi va ularga boshpana beradi. Amir Temur Boyazidga o‘z elchisi orqali xat yozib, Qora Yusufni unga topshirishini talab qiladi: “Yer-u ko‘kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo‘lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko‘pini mening farmonimga kirgizdi va olam sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdilar. O‘z qadrini bilib, haddidan oshmay, jasorat ayoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin. Sening nasli-nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida ma‘lumdir. Shunday ekan, holingga munosib ish tutib, jur‘at ayog‘ini oldinga qo‘ymaki, ranj-u mehnat

<sup>1</sup> Низомиддин Шомий. «Зафарнома». 327-бет.

<sup>2</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1 / Mas‘ul muharrir: A.Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. — T.: «Sharq», 2010. — 367-b.

balchig‘iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan. Iqbol eshigidan haydalgan bir to‘da ig‘vogar kishilar g‘arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uxlab yotgan fitnani uyg‘otmishlar. Yana o‘shalarning ig‘vosi bilan ofat va balo eshigini davlatning yuziga ochmagil. (Mazkur maktub yetishi bilan) Qora Yusufni mening oldimga yuborgil. Yo‘q esa, taqdir pardasi ikki lashkar saflari to‘qnashganda yuzingga ochilg‘usidir”.<sup>3</sup>

Ibn Arabshohning ma’lumotlariga qaraganda, Amir Temur nomasini olgach va uning mazmunini fahmlagach Boyazid o‘rnidan sapchib turib ketgan va Sohirqironni har xil bo‘lmag‘ur so‘zlar (haromi, qon to‘kuvchi, zinogar buzuqi, qing‘ir) bilan haqoratlab, unga yozgan xatining so‘nggida quyidagilarni yozgan: “...Men bilamanki, bu so‘zlar seni hech to‘xtatmasdan bizning mamlakatimizga tomon otlantiradi. Agar sen (biz tomonga) kelmasang, sening xotinlaring uch taloq bo‘lsin. Agar sen mening yurtimga kelsangu, men senga qarshi qat‘iy urush qilmay qochsam, u vaqtda mening xotinlarim uzil-kesil uch taloq bo‘lsin”.<sup>4</sup>

Amir Temur Sulton Boyaziddan bunday haqoratli xatni olgandan so‘ng ikki o‘rtada qonli muhorabaning bo‘lishi aniq bo‘lib qoladi. Ibn Arabshoh yana davom etadi: “Qachonki Temur uning iztirobli javobidan voqif bo‘lgach, “Ibn Usmon majnun va ahmoq”, dedi. Chunki u aziyatli holda haqorat qilgan edi. Temur uning javobidan xotinlarni zikr qilgan joyini o‘qib, xotima qildi. Chunki xotinlarga til tegizish ularda katta ayb bo‘lib, g‘oyat gunoh hisoblanadi. Hatto ular xotin va qizlarning ismini talaffuz qilmay, ularning har birini boshqa bir ibora bilan ataydilar hamda bu narsadan saqlanish, deb (odamlarga) doimo uqtirardilar. Agar ulardan birontasining xotini qiz tug‘sa, unda uni “pardalik bola” yoki “ziynat sohibi”, yoki “mastura”, yoki shunga o‘xshash (ibora)lar bilan ataydilar”.<sup>5</sup>

Amir Temur Boyazid bilan yozishmalar qilib, uning atrofidagi yerlarni o‘ziga qaratish uchun urushlar olib borib, u bilan bo‘ladigan bevosita jangni paysalga solishi va cho‘zishdan aniq maqsad va muddaolarni ko‘zlagan edi. Birinchidan, u Boyazidni yakkalab qo‘yadi va ittifoqchilaridan mahrum etadi. Ikkinchidan, u shu davr mobaynida dushmanning xususiyatlarini, kuchli va kuchsiz tomonlarini, urush sodir etiladigan joyning sharoitlarini o‘rganadi. O‘zining orqa tayanchini mustahkamlaydi, lashkarni kerakli oziq-ovqat zaxiralari bilan ta‘minlash va zarur bo‘lib qolgan taqdirda chekinish uchun qulay yo‘l-yo‘riqlar hozirlaydi. Rivoyat qilishlaricha, o‘sha davr Sharqining eng bilimdon munajjimlaridan bo‘lgan Abdulloh Lisson yulduzlarga qarab, g‘alaba Amir Temur tomonida bo‘lishligini bashorat qilgan edi. Bu hol Sohirqiron askarlarining ruhini ko‘targan.

---

<sup>3</sup> Temur tuzuklari, 51-bet.

<sup>4</sup> Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob, – T., “Mehnat”, 1992, 258–259-bet.

<sup>5</sup> O‘sha asar. 259-bet.



Usmonli turklar saltanatining sultoni Boyazid Yildirim esa o‘zining g‘arbda erishgan muvaffaqiyatlariga haddan tashqari baho berib, maishat va kayf-u safoga mukkasidan ketgan edi. Bu barcha musulmonlarning undan nafratlanishi va yuz o‘girishiga sabab bo‘ladi. Buning ustiga Boyazid ikki muqaddas shahar — Makka va Madinaga ziyorat uchun borayotgan karvonlarni talash bilangina cheklanib qolmasdan, hatto Amir Temurga qarshi isyonlarga ham boshchilik qilgan oqquyunlu va qoraquyunlu qabilalarining boshliqlarini o‘z himoyasiga olgan edi.

Amir Temur 1402-yilning aprel oyida Quriya daryosini kechib o‘tib, birin-ketin Tartum, Kemox va Qaysariya kabi qal‘a-shaharlarni egallab Turkiya bilan Suriya va Bag‘dod aloqalari yo‘lini kesib qo‘yadi. U bu yerdan Anqara qal‘asi tomon harakat qiladi va to‘rt kunda 120 chaqirim yo‘lni bosib o‘tib, Kir shahriga kirib keladi. Bu yerda Sohibqiron g‘azabga to‘lgan Boyazid o‘z qo‘shinlari bilan yetib kelayotganligidan xabar topadi. Boyazid to‘g‘risida batafsilroq va to‘laroq ma‘lumotlar to‘plash maqsadida Temur o‘zining 1000 chavandozini uning yo‘nalishi tomon jo‘natadi. Sohibqironning o‘zi asosiy lashkarlari bilan uch kun mobaynida 150 chaqirim yo‘lni bosib o‘tib Anqaraga keladi. Temurning asosiy maqsadi Boyazidni Turkiya poytaxti Bursadan uzib qo‘yish va jangni o‘zi uchun qulay bo‘lgan vaziyatga yo‘naltirishdan iborat edi.

Rus harbiy tarixchisi M.I. Ivanin tomonidan chuqur o‘rganilgan harbiy yurishlardan biri 1402-yili Sulton Boyazidga qarshi qilingan yurishdir. Bu yurishni boshlashdan avval Amir Temur yon tomonlarni, ya‘ni Kavkazorti va Suriyani bo‘ysundirib, Misr sultonini sulh tuzishga majbur qila oldi. Hatto orqa tomonni to‘liq xafvsizlantirish uchun Bag‘dodni qaytadan zabt etdi. Sulton Boyazid Amir Temur bilan jangni Turkiyaning janubiy qismida bo‘lishini hohlardi, chunki bu yerdagi jangda Temur yengiladigan bo‘lsa, Suriya va Misr qaytadan qo‘zg‘olib, Boyazidga yordamga kelishi mumkin edi. Bu esa Temurga qayta kuch to‘plashga imkon bermas va butunlay halokatga olib kelardi. Boyazidda esa yengilgan taqdirda ham mamlakat ichkarisiga chekinib, qayta kuch to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lardi. Lekin M.I. Ivanin ta‘kidlaganidek, —Amir Temur Gurjistondan Boyazid qo‘shinlarining orqasiga qilgan mahoratli harakatlari bilan urushni Kichik Osiyoning shimoliy qismiga ko‘chirishga erishdi. Amir Temur Turk davlatining markaziga juda katta tezlik bilan harakat qildi. Amir Temur lashkari 3 kun ichida 150 km masofani bosib o‘tdi. M.I. Ivanin uning bu harakatini quyidagicha baholagan edi: —Shunchalik katta qo‘shin bilan qilgan bu harakatni o‘z o‘ljasini ko‘rib, unga tashlangan yo‘lbars harakati bilan tenglashtirsa bo‘ladi. Anqaraga yetib kelgan Amir Temur shaharni qamal qilishni buyurdi. Amir Temur shu yerda dushman bilan jang qilishga qaror qildi. Bu yer Temur uchun juda qulay bo‘lib, yengilgan taqdirda kelgan yo‘li bilan chekina olar edi. Boyazid uchun esa Anqara mamlakat markazi bo‘lib, agar u shunday holatga tushsa, chekinib, qayta kuch to‘plashining iloji yo‘q edi.

Ivaninning ta'kidlashicha, Sulton Boyazid bu yerga yetib kelgan paytda Amir Temur qo'shinlari ancha dam olib jangga hozirlikni tugatgan bo'lib, Boyazid qo'shini esa yo'l yurib horigan edi. Uning ustiga Boyazid jangdan bir necha kun avval kunning issiq paytida katta ov uyushtiradi. Shu ov paytida issiqdan va suvsizlikdan 5000 kishi halok bo'ladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jang natijasi aslida, jangdan avval hal bo'lgan edi. Boyazid qo'shinlari jang davomida qurshab olindi va qirib tashlandi. Boyazidning o'zi asir olindi. Shunday qilib, M.I. Ivanin Anqara jangi taqdiri Amir Temurning jang oldi tayyorgarliklari bilan hal bo'lganligini ta'kidlaydi. Chindan ham Sharofuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar ham o'z asarlarida Amir Temurning jang maydoniga raqibidan avval yetib kelganligi va juda qulay o'rinlarni egallab olganligini, usmonli turklar kelib o'rinishi kutilgan hududlardagi quduqlar ko'mib tashlanganligini bayon qilganlar.<sup>6</sup> 1402-yilning 20-iyul kuni Amir Temur qo'shinlari jang maydoniga saflanadilar. Bu safar qo'shin yanada mukammal tartibda jang maydonida saf tortadi. O'ng va chap qanot, shuningdek markazning o'zi ham bir necha yirik harbiy qismlarga bo'linadi. Misol uchun Sharofuddin Ali Yazdiy markazning ham alohida o'ng va chap qanoti hamda markazi bo'lganligini bayon qiladi.<sup>7</sup> Xuddi shu tartib o'ng va chap qanotda ham bo'lgan bo'lishi kerak. Markazning ortiga qirq harbiy qismdan iborat zahira joylashtiriladi. Tepasiga o'z davrining to'plari, tosh otuvchi manjanoqlari va kamon o'qchilari o'tqazilgan jangovar fillar esa markazning old qismidan o'rin oladi. Jangni dastlab o'ng qanotning Abubakr mirzo boshchiligidagi oldingi qismi (kanbul) boshlab beradi. Ular dushman tomon yaqinlashib raqib saflarini kamondan yoppasiga o'qqa tuta boshladilar. Shundan so'ng har bir harbiy qism jangdagi maydonidagi vaziyatga qarab berilgan qo'mondonlik buyrug'i bilan birin-ketin jangga kiradi. Eng oxiri markazning markazidan joy olgan Mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi kuchlar jangga kiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Temur qo'shini dastlab qanotlardan zarba berib, raqibni qurshab olishga harakat qilgan. Markazda turgan Mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi qo'shin esa jangga kiringandan so'ng ortga chekindi. Natijada dushmanning shaxsan Sulton Boyazid boshchiligidagi markiziy qismi ilgari yurib bir necha tepaliklarni egalladi. Bu vaqtda o'ng qanotda turgan Shohrux mirzo, chap qanotda turgan Mironshoh mirzo boshchiligidagi harbiy kuchlar hal qiluvchi zarbalarni berib raqib qanotlarini yorib o'tdilar. Jang oxiriga kelib, jang uchun tuzilgan reja to'la amalga oshdi, ya'ni Sulton Boyazid o'zining asosiy kuchlari bilan qurshab olindi. Dushman qurshovni yorib chiqishga urinayotgan vaqtda Amir Temur qo'shini raqibni qurshovdan chiqib ketishi uchun yo'l ochib beradi. Bu esa dushman qarshiligini keskin pasaytirib yuboradi va ular o'zlarini qurshovdan chiqish yo'liga uradilar. Bu yerda esa ularni Movarounnahr qo'shinining kamonchilari kutib olishadi. Sulton Boyazid ham qurshovdan chiqib

<sup>6</sup> Йаздий. Зафарнома. – Б. 257.

<sup>7</sup> O'sha asar. – Б. 259.

qochishga ulgurgan bo‘lsa-da, ko‘p o‘tmay Sulton Mahmudxon tomonidan asir olinadi. Jang Amir Temur qo‘shinlarining yaqqol g‘alabasi bilan yakun topadi. Asir olingan turk sultonining Temur saroyidagi hayoti ko‘plab tarixchilarning e‘tiborini jalb qilgan. Tarixchi olimlar umumiy ikki o‘rtadagi yo‘qotishlar haqida so‘z yuritar ekan, Amir Temur qo‘shinlarini jami yo‘qotishlari 1500 askar o‘lgan va 25000 jangchi yaralanganini, Yildirim Boyazid qo‘shinidan esa 40000 jangchi o‘lgani va 50000 jangchi yaralangani haqida tarixiy manbalarda ma‘lumotlar qoldirgan. Jumladan, rus tarixchisi V.N. Tatishchev Amir Temurning Turkiya sultoni Boyazidga qarshi yurishlari haqida so‘zlar ekan, Sohibqironning g‘alabasi bilan tugagan Anqara jangida asir olingan turk sultoni qafasga solinib, g‘olib Temur bilan birga olib yurilganligi to‘g‘risidagi afsonaviy ma‘lumotlarni keltiradi. Shu o‘rinda, aynan shu afsona hatto hozirgi kunga qadar Yevropaning ham ilmiy, ham badiiy adabiyotida keng tarqalganligini eslatib o‘tish lozim. Amir Temur bilan bog‘liq shunga o‘xshash boshqa rivoyatlar haqida tarixchi olim T. Fayziyev ham ma‘lumot beradi.<sup>8</sup> Lekin, ko‘pgina ishonchli tarixiy manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning —Zafarnomasida bu voqea quyidagicha bayon qilinadi: —...Yildirim Boyazidni dargohi olampanohga kelturdilar. Sohibqiron farmonladikim, —ilkini echib, hurmat bila keltursunlar! Bas, ani hazrat qoshida izzat bila kelturib, hazrat ani ko‘rib, ko‘p izzat tutib, o‘z qoshida o‘lturguzdi... -Yildirim Boyazid uchun podshohona oq uy tikib edilar. Sohibqiron-yildirim Boyazidga inoyat va shavkatlar qilib, har kun anga o‘z qoshida kelturub, suhbat tutib, ko‘ngul berur edi.<sup>9</sup> Ushbu g‘alabadan so‘ng Amir Temur qo‘shinlari Kichik Osiyoning barcha shahar qal‘alarini birin-ketin zabt etdilar. Bular ichida ayniqsa, salibchilarning Kichik Osiyodagi so‘nggi qarorgohlari Izmir qal‘asining egallanishi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi. Chunki bu qal‘a o‘zining bo‘ysunmasligi bilan shuhrat qozongan edi. Amir Temur Kichik Osiyoda turgan vaqtda Misr sultoni Faraj elchi yuborib, o‘zining Sohibqironga to‘la bo‘ysunganligini, Suriya va Misrda uning nomiga xutba o‘qilayotganligini bildirdi. Amir Temur ham o‘z navbatida Sulton Farajni Misrdagi noibi etib tayinladi. Shunday qilib —yetti yillik yurishi davomida Amir Temur qo‘shinlari Iroqni, Kichik Osiyoni, Kavkaz ortini, O‘rta yer dengizining sharqiy sohillaridagi davlatlarni va Misrni bo‘ysundirdi. Amir Temur davlatining g‘arbiy chegaralari yanada kengaydi va xavfsizligi ta‘minlandi. Amir Temur davlati Yevropa davlatlari bilan bevosita aloqalar qilish imkoniga ega bo‘lib, ikki o‘rtada siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojlandi. Buyuk Ipak yo‘lining g‘arbiy va janubiy qismlarida to‘la xavfsizlik ta‘minlanib, iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi uchun keng sharoit yaratildi. Amir Temurning — yetti yillik yurishda erishgan yutuqlari, jumladan Usmonli turklar davlatining tor-mor keltirilishining xalqaro ahamiyati haqida ko‘pgina olimlar o‘z mulohazalarini bildirganlar.

<sup>8</sup> Файзиёв Т. Темурийлар шажараси. – Б. 34-35.

<sup>9</sup> Йаздий. Зафарнома. – Б. 261.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda har qanday saltanat aql, adolat va kuch poydevorida qad tiklaydi. Tangri saltanat tegirmonini yurgizishni hamma xalqning birdek peshonasiga bitgan emas. Eski birdaniga eskiligi uchun yodlansa, eskiligicha qoladi. Meros qayta tiklanishi avlod qoniga payvand qilinsa tiklanadi, yangilanadi, chinakam ota meros mulkka aylanadi. Biz bu o‘rinda saltanat poydevorining muhim tayanchi kuch va uning aql-zakovat, tadbirkorlik bilan uyg‘unligi xususida chuqur anglamog‘imiz lozim. Amir Temur Anqara jangida o‘zining mohir sarkarda ekanligini yana bir bor isbotladi. Tarixning ko‘z yumib bo‘lmas bir haqiqati borki, Amir Temur dunyoning to‘rt jahongiridan biridir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев-Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Темур тузуклари. / Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ. Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. – Т.: «O‘zbekiston», 2012. – 184 б.
3. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.
4. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. II. –Т.: Меҳнат, 1991. – 192 б.
5. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков,-Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
6. Файзиев Т. Темурийлар шажараси – Т.: Ёзувчи, Хазина, 1995. – 350 б.
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1/Mas’ul muharrir: A.Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. — Т.: «Sharq», 2010. — 367-б.

## MEDIA DISCOURSE IN THE PERSPECTIVE OF LINGUISTS

***Khojiakbarova Shakhzoda***

*Master's Degree student of Uzbekistan State*

*World Language University*

*khojiakbarovas@gmail.com*

### ABSTRACT

The study explores media discourse through the lens of linguistics, emphasizing its structure, features, and the role it plays in shaping public perception. By examining discourse in media, the research delves into critical discourse analysis (CDA) to uncover underlying power dynamics, ideologies, and communicative strategies. Then, with Systemic Functional Linguistics complemented with Van Dijk's theory of media discourse as models of analysis, it is observed that linguistic devices such as modality, evaluative adjectives, adverbs, generic phrases, rhetoric and idioms are used to state opinions, make predictions and influence attitudes. The analysis focuses on the lexicon, speech patterns, and rhetorical devices employed in media texts, highlighting how language influences and reflects social realities. This paper contributes to the understanding of media as a linguistic phenomenon, providing insights into the intersection of discourse and communication in contemporary society.

**Keywords:** Media discourse, linguistic devices, critical discourse analysis, lexicon, speech.

### INTRODUCTION

„Language and Media Discourse: Shaping Society and Communication”

Language is a fundamental tool of communication that enables the expression of a wide range of ideas. It plays a key role in shaping and influencing societal attitudes while providing a means to evaluate and convey thoughts. Through language, individuals can persuade, influence, joke, express admiration, and show appreciation. As a central element of human activity, language serves both practical and social purposes. Opara (2011:1) aptly describes language as “a way of behaving and making others behave.” Ferdinand de Saussure (1916), a structural linguist, defined language as a system of signs (signifier and signified) that allows humans to communicate. Noam Chomsky (1957), a generative linguist, sees language as an innate human ability to produce and comprehend an infinite number of sentences through a finite set of rules. It allows individuals to articulate their ideas, emotions, and attitudes, while also evoking various responses and feelings from those they communicate with. As we live in an „age of technology” media has emerged as one of the most influential platforms for communication, shaping public perceptions, constructing realities, and influencing societal attitudes. At the heart of media communication lies media discourse, a dynamic and multifaceted form of language use that conveys information while subtly embedding opinions, ideologies, and predictions. For linguists, media discourse offers a rich field of study, where language is not only analyzed as a tool for communication but also as a means of power, persuasion, and influence.

## LITERATURE REVIEW

Prima’s (2022) study traces the etymology of the term “discourse” to the Latin word *diskursus*, which signifies reflection. According to Prima, discourse fundamentally serves as a foundational concept in communicative linguistics, a field that seeks to achieve universal consensus. Scholars like Teun A. van Dijk and Norman Fairclough have significantly contributed to the theoretical framework of media discourse, particularly through their work on discourse analysis and critical discourse analysis (CDA). These researchers explored how language in media texts constructs meaning, communicates ideologies, and influences public perception. The term “lexicon” originates from the Greek word *lexis* (meaning “word” or “speech”) and the Latin *lexicon*. It has been a fundamental concept in linguistics since ancient times, especially in the study of vocabulary, semantics, and language structure. Modern linguistic studies of lexicon were significantly advanced by scholars like Ferdinand de Saussure, who explored the structure of language, and later by Noam Chomsky, who emphasized the mental lexicon in generative grammar. The concept of “speech” has been central to linguistics and philosophy for centuries, discussed by ancient thinkers such as Aristotle and Plato in their works on rhetoric and communication. In modern linguistics, Ferdinand de Saussure distinguished between *langue* (language) and *parole* (speech), laying the foundation for contemporary studies of spoken language. Philosophers like John Austin and John Searle later explored speech acts, focusing on how speech functions in communication beyond merely conveying information. Critical Discourse Analysis (CDA) was primarily developed and popularized by Norman Fairclough in the late 1980s and early 1990s. Fairclough’s work laid the foundation for CDA as a method for analyzing the relationship between language, power, and society. His seminal book, *Language and Power* (1989), is considered a cornerstone in the field. The term “discourse analysis” was introduced by the linguist Zellig Harris in 1952 in his seminal paper *Discourse Analysis*. Harris used the term to describe a method for studying language beyond the sentence level, focusing on the relationship between linguistic elements and their broader social and cultural contexts. His approach was rooted in structural linguistics and sought to analyze patterns in connected speech or text.

## METHODOLOGY

The descriptive method of scientific research has been used for a thorough and structured characterization of the current state of English-language media discourse. The comparative method was used to determine the saturation of linguistic innovations and their prevalence. The typological method, which was used in writing the article, helped to establish the common qualities of the English language in the projection on their diversity of linguistic characteristics. A close examination of newspaper editorials forms the basis of your study, focusing on how specific linguistic features (e.g.,

evaluative adjectives, speech acts, modality) frame narratives, influence public perception, and reflect ideological stances. Textual analysis allows for a detailed investigation of the structure, vocabulary, and rhetorical strategies employed in the discourse. A method focused on identifying and interpreting the lexicon (word choice) used in media texts. By analyzing specific terms, evaluative language, and connotations, the study reveals how lexical choices evoke emotional responses or convey ideological positions.

## **RESULTS AND DISCUSSIONS**

### **Modality**

Modality reflects a writer’s evaluation of or attitude toward the likelihood of a particular situation. It serves as a tool for making claims to knowledge, enabling writers to express various types of statements, such as assertions, opinions, hypotheses, and speculations (Cameron, 2001).

In the editorials analyzed, modal auxiliary verbs such as “may,” “can,” “will,” “should,” “would,” and “could” were employed to convey modality. These verbs allowed the writers to embed expressions of belief, attitude, and obligation within their statements.

1. The proposed policy may lead to significant economic growth if implemented correctly.”

(The writer is indicating a possibility but not certainty.)

2. Community engagement can play a vital role in solving this issue.”

(The writer highlights potential or capability.)

3. The government’s decision will have long-term consequences for future generations.”

(The writer is making a strong prediction with confidence.)

4. Policymakers should prioritize education reforms to address inequality.”

(The writer expresses an opinion on what ought to be done.)

5. Increasing public investment would likely improve infrastructure quality.”

(The writer hypothesizes an outcome based on a condition.)

6. The recent changes in legislation could create new opportunities for small businesses.”

(The writer suggests a potential outcome.)

### **Evaluative Adjectives and Adverbs.**

The editorial writers used strongly evaluative adjectives and adverbs as linguistic tools to convey their views on the deplorable situation in the country.

1. President Goodluck Jonathan, of course did not create the sorry state of modern Nigeria.

2. At mid-term, there is still no urgent sense of crises

3. This means absolutely nothing to those in the majority who subsist on less than N200 a day.

### **Modality Through The Use of Reporting verbs**

Modality refers to the speaker’s or writer’s attitude toward the possibility, necessity, or obligation of an action or situation. When expressed through reporting verbs, modality reveals degrees of certainty, obligation, or possibility.

#### **Expressing Certainty**

The researcher **claims** that climate change is primarily caused by human activity.

#### **Expressing Possibility**

The article proposes that alternative energy sources might reduce emissions.

#### **Expressing Obligation or Necessity**

The author advocates for stricter environmental regulations.

#### **Expressing Doubt or Criticism**

The author challenges the validity of the opposing argument.

### **Rhetorical Strategies and Figurative Language**

Metaphors and idiomatic expressions were commonly used to simplify complex political and social issues. For instance, metaphors like “breaking the chains of corruption” evoked emotional responses while reinforcing ideological messages. Repetition and hyperbole were used to emphasize critical points, making certain narratives more persuasive and memorable.

#### **Examples from the excerpts were:**

1. Why should the country be subjected to such organizing experience with its attendant socio-economic consequences?
2. To what extent has the year of faith enabled the various target groups to start performing their roles better than before?
3. Why do wealthy Nigerians prefer to send their wards abroad for tertiary education including to less endowed sister countries like Ghana?

Thus, rhetoric were used to influence readers and draw their attention to the situation of affairs being discussed. The use of the device evoked emotional effects to the readers.

## **CONCLUSION**

The study of media discourse through the lens of linguistics reveals the intricate relationship between language, ideology, and power. Media discourse, as a site of linguistic analysis, serves as a platform where societal norms, values, and ideologies are constructed, reinforced, and sometimes challenged. By employing tools such as critical discourse analysis, lexicon analysis, speech act theory, and rhetorical strategies, linguists uncover how media texts influence public opinion and shape perceptions of reality. In conclusion, media discourse is a powerful linguistic and social phenomenon, and its analysis offers invaluable insights into the ways language shapes and is shaped by society. By continuing to analyze media discourse through a linguistic perspective, scholars can contribute to a deeper understanding of how language functions as a tool for social influence and ideological transmission.



**REFERENCES:**

1. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford University Press.
2. Boyd-Barrett, O. (1994). *Language and media: A semiotic approach*. In D. Graddol & O. Boyd-Barrett (Eds.), *Media texts: Authors and readers* (pp. 23–42). *Multilingual Matters*.
3. Cameron, D. (2001). *Working with spoken discourse*. SAGE Publications.
4. Fairclough, N. (1989). *Language and power*. Longman.
5. Fairclough, N. (1995). *Critical discourse analysis: The critical study of language*. Longman.
6. Foucault, M. (1972). *The archaeology of knowledge*. Pantheon Books.
7. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning*. Edward Arnold.
8. Lakoff, G. (2004). *Don't think of an elephant! Know your values and frame the debate*. Chelsea Green Publishing.
9. Prima, S. (2022). *The etymology of discourse: Reflections on language and society*. *Journal of Linguistic Studies*, 18(3), 45–58.
10. Searle, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.
11. Van Dijk, T. A. (1988). *News as discourse*. Lawrence Erlbaum Associates.
12. Van Dijk, T. A. (2001). *Critical discourse analysis*. In D. Schiffrin, D. Tannen, & H. Hamilton (Eds.), *The handbook of discourse analysis* (pp. 352–371). Wiley-Blackwell.
13. Wodak, R. (2001). *Methods of critical discourse analysis*. SAGE Publications.
14. Ney arior Higi Schol Journal or Aolescent and Adul Lieray 32 (1), 587-588. Nerak DE: International Reading Association.
15. Aldler, R.B. and Rodman, G. (2000). *Understanding human Communication*. USA: HarcourtCollege Publishers.
16. Bilal stan English print Media: Apicain of DA. *International Journal of Lingalistic*
17. Boyd-Barret (Eds). *Media Texts: authors and readers*. (pp. 22-39).
18. Brown, G. and Yule, G. (1983). *Discourse analysis*. Cambridge: Cambridge University Press.
19. Cameron, D. (2007). *The teachers guide to grammar*. Oxford: Oxford University Press.
20. Finegan E. (2012). *Language: Its structure and use*. USA: Wadsworth Language learning.
21. Malcolmnnguage, arenese P. as en Post Ma A Rosa & V. Clark Eds).

**O‘ZBEKISTON MUZEYLARGA BO‘LGAN E‘TIBOR (1991-2021) HAMDA  
MUZEY SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY NORMATIV  
HUJJATLAR VA STATISTIKA MA‘LUMOTLARI**

*Abdullayev Temur*

*Chirchiq davlat pedaogika universiteti*

*Fakultetlar’aro ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 1991-2021 yillar davomida muzeylarga bo‘lgan e‘tibor va ushbu sohani rivojlantirishda amalga oshirilgan huquqiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida muzeylar milliy madaniy merosni asrash va targ‘ib qilishning muhim markazlariga aylangan. Maqolada muzeylar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normativ hujjatlar, jumladan, “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun, Prezident farmonlari va qarorlari hamda Davlat dasturlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqolada O‘zbekiston muzeylarining soni, ularning hududiy taqsimoti, tashrif buyuruvchilar statistikasi va muzey fondlarining boyitilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltiriladi. 1991-2021 yillarda davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar va xalqaro hamkorlik dasturlari orqali muzey infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi va yangi muzeylarning tashkil etilishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari muzey sohasini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari va kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilashga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston muzeylari, madaniy meros, huquqiy normativ hujjatlar, muzeylar to‘g‘risidagi qonun, muzey sohasini rivojlantirish, statistika, madaniy infratuzilma, mustaqillik yillari, tashrif buyuruvchilar, muzey fondlari.

**ATTENTION TO MUSEUMS IN UZBEKISTAN (1991-2021) AND LEGAL  
REGULATORY DOCUMENTS AND STATISTICAL DATA IN THE  
DEVELOPMENT OF THE MUSEUM SECTOR**

**Annotation.** This article analyzes the attention paid to museums in the Republic of Uzbekistan in 1991-2021 and the legal, economic and cultural reforms implemented in the development of this sector. During the years of independence, museums have become important centers for the preservation and promotion of national cultural heritage. The article analyzes the legal regulatory documents regulating the activities of museums, including the Law “On Museums”, Presidential Decrees and Resolutions, and State Programs.

The article also provides information on the number of museums in Uzbekistan, their territorial distribution, visitor statistics, and the enrichment of museum funds. The

modernization of museum infrastructure and the establishment of new museums through state funds and international cooperation programs in 1991-2021 are highlighted. The results of the study will help determine important areas of development of the museum sector and future priorities.

**Keywords:** Museums of Uzbekistan, cultural heritage, legal regulations, law on museums, development of the museum sector, statistics, cultural infrastructure, years of independence, visitors, museum funds.

## ВНИМАНИЕ К МУЗЕЯМ В УЗБЕКИСТАНЕ (1991-2021 ГГ.) И ПРАВОВЫМ НОРМАТИВНЫМ ДОКУМЕНТАМ И СТАТИСТИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ В РАЗВИТИИ МУЗЕЙНОЙ СФЕРЫ

---

**Абстрактный.** В данной статье анализируется внимание, уделяемое музеям в Республике Узбекистан в 1991-2021 годах, а также правовые, экономические и культурные реформы, реализованные в развитии этой сферы. В годы независимости музеи стали важными центрами сохранения и популяризации национального культурного наследия. В статье анализируются правовые и нормативные документы, регулирующие деятельность музеев, в том числе Закон «О музеях», указы и постановления Президента, Государственные программы.

Также в статье представлена информация о количестве музеев Узбекистана, их территориальном распределении, статистике посещений и пополнении музейных фондов. В 1991-2021 годах будет обеспечена модернизация музейной инфраструктуры и создание новых музеев за счет средств, выделяемых государством и программ международного сотрудничества. Результаты исследования помогут определить важные направления развития музейной сферы и приоритетные задачи на будущее.

**Ключевые слова:** музеи Узбекистана, культурное наследие, нормативно-правовые документы, закон о музеях, развитие музейного дела, статистика, культурная инфраструктура, годы независимости, посетители, музейные фонды.

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy madaniyat va tarixiy merosni asrash, targ‘ib qilish hamda kelajak avlodga yetkazish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jarayonda muzeylar xalqning madaniy xotirasi va boy tarixiy merosini namoyish etuvchi muhim markaz sifatida alohida e‘tiborga sazovor bo‘ldi.

1991-2021 yillar davomida muzeylar sohasini rivojlantirish uchun qator huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, Prezident farmonlari va qarorlari, Davlat dasturlarining

qabul qilinishi mazkur sohaning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga, muzey infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi muzeylar tashkil etishga katta e’tibor qaratildi.

Muzeylarning soni, ularning tashrif buyuruvchilari statistikasi, fondlarning boyitilishi kabi ko‘rsatkichlar ushbu sohadagi islohotlarning natijadorligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda muzey sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, huquqiy normativ hujjatlar va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Bu esa muzeylarning madaniy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

O‘zbekistonda muzeylar faoliyatini o‘rganish va rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar, huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlar ushbu sohaning rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikdan keyingi davrda muzeylar sohasiga oid huquqiy asoslar yaratilib, qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonuni (1999) muzeylar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonun muzeylarning ijtimoiy vazifalarini belgilab, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Prezident farmonlari va qarorlari, xususan, 2017-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atni rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va 2020-yildagi “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanishni takomillashtirish” to‘g‘risidagi qaror, muzeylarning moddiy-texnik holatini yaxshilash va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashga qaratilgan.

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1991-2021 yillar davomida O‘zbekistonda muzeylar soni sezilarli darajada oshgan. Masalan, Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, mustaqillik davrida yangi muzeylar tashkil etilib, ularning fondlaridagi eksponatlar soni ko‘paygan. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa aholining madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muzeylar faqat eksponatlarni saqlash joyi emas, balki ilmiy-tadqiqot markazlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar muzeylarning ta’limiy va ma’rifiy rolini alohida ta’kidlaydilar. Jumladan, O‘zbekistonning qadimiy shaharlari va madaniy meros obyektlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar muzeylar faoliyatini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Shu bilan birga, ayrim manbalarda muzey sohasidagi muammolar, jumladan, yetarli moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash masalalari va texnologik modernizatsiya ehtiyojlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tahlillar muzey sohasini rivojlantirish

bo'yicha kelgusidagi strategik yo'nalishlarni belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda 1991-2021 yillar davomida muzeylar sohasining rivojlanishi, huquqiy normativ hujjatlar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

1. Tahliliy-metodik yondashuv

O'zbekiston Respublikasining muzeylar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, Davlat dasturlari o'rganildi. Ushbu hujjatlar asosida muzey sohasini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilindi.

2. Statistik tahlil

O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida muzeylarning soni, tashrif buyuruvchilar statistikasi, muzey fondlaridagi eksponatlar sonining o'zgarishi tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar yordamida sohadagi ijobiy o'zgarishlar va mavjud muammolar aniqlandi.

3. Tarixiy yondashuv

Mustaqillik yillarida muzeylar sohasida amalga oshirilgan islohotlar bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Muzeylarning milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi roli tarixiy jarayonlar kontekstida ko'rib chiqildi.

### **Tahlillar va natijalar**

Tahlillar davomida aniqlanishicha, O'zbekistonda 1991-2021 yillarda muzeylar sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Huquqiy asoslar mustahkamlanib, 1999-yilda qabul qilingan “Muzeylar to'g'risida”gi qonun ushbu sohada muhim rol o'ynagan. Shuningdek, Prezident farmonlari va qarorlari orqali muzeylarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va yangi muzeylar tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mustaqillik davrida muzeylar soni sezilarli darajada oshgan. 1991-yilda mavjud bo'lgan muzeylar soni 100 dan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 150 dan oshgan. Muzey fondlaridagi eksponatlar soni ham ortib, milliy madaniy merosning boyishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, tashrif buyuruvchilar soni ham yildan-yilga oshib borgan. Ayniqsa, yoshlar va sayyohlar orasida muzeylarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshgani kuzatilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlash maskanlari, balki ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot markazlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Muzeylarning ta'limiy roli oshib, ular yosh avlodni tarbiyalashda muhim vositaga aylangan. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida o'tkazilgan loyihalar va ko'rgazmalar muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam bergan.

Biroq, ba’zi muammolar ham aniqlangan. Xususan, ayrim muzeylarda moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmagani, kadrlar yetishmovchiligi va zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi kabi masalalar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish muzeylar sohasini yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Xulosa**

1991-2021 yillar davomida O‘zbekistonda muzeylar sohasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida qabul qilingan huquqiy normativ hujjatlar, xususan, “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun, Prezident farmonlari va qarorlari muzeylarning faoliyatini tartibga solish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik davrida muzeylar soni va fondlaridagi eksponatlar miqdori sezilarli darajada oshgan. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar, ayniqsa yoshlar va xorijiy sayyohlar sonining ortishi, jamiyatda madaniy merosga bo‘lgan qiziqishning oshganini ko‘rsatadi.

Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni asrash maskanlari, balki ilmiy-tadqiqot va ma’rifiy markazlar sifatida ham rivojlandi. Ular milliy madaniyatni targ‘ib qilish, yosh avlodni tarbiyalash va xalqaro miqyosda O‘zbekiston madaniyatini tanitishda muhim rol o‘ynadi.

Shu bilan birga, ba’zi muammolar, jumladan, moddiy-texnik bazaning ba’zi joylarda yetarli darajada rivojlanmagani, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar va kadrlar tayyorlash masalalari mavjudligini ham ta’kidlash lozim. Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali muzeylar sohasini yanada rivojlantirish va uning milliy madaniyatni saqlashdagi o‘rnini mustahkamlash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston muzeylari madaniy, ijtimoiy va ta’limiy hayotda muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatning madaniy merosini kelgusi avlodlarga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonuni. (1999-yil, 13-aprel).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”. (2020-yil, 26-may).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni: “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’atni rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. (2017-yil, 31-may).
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. (1991-2021-yillar).

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
1	TA'LIMDAGI O'ZGARISHLAR: DIREKTORNING ROLI VA YUTUQLARI	4
2	USING GAMES AND ACTIVITIES TO ENHANCE SPEAKING SKILLS	8
3	МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ САМОКОНТРОЛЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ	12
4	ANDIJON SUV OMBORINING MINTAQADAGI SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	17
5	MYOCARDIAL INFARCTION	21
6	KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI	25
7	SYLLABLE FORMATION: PRINCIPLES AND PATTERNS IN LINGUISTICS	29
8	BOLALAR VA O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI: RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	33
9	WAYS TO INCREASE VOCABULARY RANGE IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	41
10	BITIRUVCHI SINIF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA YOZA OLISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODLARI	46
11	TA'LIM TIZIMIDA BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI BAHONING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	52
12	YOSHLAR TARBIYASIDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI KONSEPSIYASINING TARG'IB ETISHNING TARBIYAVIY JIHATLARI	60
13	РАЗВИТИЕ СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОГО МЕТОДА В ЛИНГВИСТИКЕ XIX ВЕКА	65
14	ВЛИЯНИЕ ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ГЕОПОЛИТИЧЕСКУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ В ПОСТСОВЕТСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ	68
15	METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING STUDENTS' INFORMATION CULTURE	71
16	AGROSANOAT ZANJIRIDA QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATIVLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	74
17	TERMIZ SHAHRI ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI	78
18	TERMIZ SHAHRI ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI	81
19	НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ЁШЛАРНИ КАСБ-ХУНАРГА ЙУНАЛТИРИШ	84
20	ИСТОКИ УЗБЕКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА: ТРАДИЦИИ И НАСЛЕДИЕ	88
21	ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ МУЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ ТРАДИЦИИ: РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННОСТЬ	93

22	НАЦИОНАЛЬНАЯ МУЗЫКАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА КАРАКАЛПАКОВ И ЕЁ МЕСТО В УЗБЕКИСТАНЕ	98
23	ЖЕНСКИЙ ВОКАЛ В УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ МУЗЫКЕ	103
24	ПОЛУЧЕНИЕ УРОЖАЯ ЗЕЛЕННЫХ БОБОВ ОВОЩНОЙ СОИ СОРТА УНИВЕРСАЛ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СРОКОВ СЕВА	108
25	SOLIY QODIROVNING ASARLARIDA INSON ICHKI TUYG‘ULARI	111
26	ФЕНОЛОГИЧЕСКИЕ НАБЛЮДЕНИЯ И БИОМЕТРИЧЕСКИЕ ИЗМЕРЕНИЯ СОРТОВ ТЕХНИЧЕСКОЙ КОНОПЛИ	115
27	КОКТЕЙЛЬНЫЕ ТОМАТЫ	121
28	ISLOMDA BOG‘IYLIK MAVZUSI	126
29	HEPATITIS	133
30	QUYONCHILIK FERMALARIDA VIRUSLI KASALLIKLARNING OLDINI OLISH	137
31	INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI	143
32	PEDAGOGNING JAMOА BILAN MUOMALASI	146
33	INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MIKROBIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	150
34	CHEKSIZ KICHIK VA CHEKSIZ KATTA MIQDORLAR	154
35	MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	157
36	O‘ZBEK TILIGA O‘ZGA TILLARDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR VA ULARNING TARIXI	161
37	STRUCTURING OPENINGS AND CLOSINGS IN THE LITERARY TEXT	169
38	ANQARA JANGI TARIXI VA OQIBATLARI	174
39	MEDIA DISCOURSE IN THE PERSPECTIVE OF LINGUISTS	181
40	O‘ZBEKISTON MUZEYLARGA BO‘LGAN E‘TIBOR (1991-2021) HAMDA MUZEY SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY NORMATIV HUUJATLAR VA STATISTIKA MA‘LUMOTLARI	186



*Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.*

**Editor in chief**  
**Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Executive Secretary**  
**Abdurahmonov Boburjon**

**Preparing for publishing**  
**Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li**